

Har holda kichik-kichik narsalar bilan bo'lsa-da onamning ko'nglini ko'tarishni uddalay olganimdan xursand edim. Men xafa bo'lsam yoki kimnidir ranjtsam, ortimdan so'rab keladigan kimsam yo'q edi. Buni ich-ichimdan his etardim.

Yotishdan oldin deraza oldiga borib osmonga tikildim. Bulutlardan bir uy qurdim. Onamni ham olib borib unga birga yashadik... xullas, besh daqiqada baxtli bo'ldim-qoldim xayolan. Mening haqiqiy do'stlarim mana shunday xayollar bo'lib qoldi. Ba'zan o'ylab qolaman, xayol ham qilamaganim yaxshimikan. Balki, shuni ham uddalay olmayotgnadirman.

O'rnimga cho'zildim. Charchoq dastidan juda ham holdan toygandim. Tezroq uxlashim kerak edi. Chunki ertaga ishdan chiqib mikroavtobus yuvishga ham borish darkor. Ya'ni, ertalab to'qqizda uydan chiqib, o'n birda qaytar edim. Aslida, bu kunlarda ikkita ish qilayotgan bo'lsam-da, onam ertalab o'nda ishga tushib, o'sha ishdan o'nda chiqadi deb o'ylardi. Men onamni tashvishlanmasin deya yolg'on gapirib yursam, u ham meni: "Xolangnikidaman, qo'shnikidaman", deya farroshlik qilib aldab yurgandi. Ikkalamizda ham ayb yo'q, to'g'rimi?

Boshimizga tushgan bu ko'rgiliklardan beri qancha vaqt o'tgan bo'lsa-da, hol so'rab hech kim qo'ng'iroq qilmadi. Aslida, bir-ikki kishi sim qoqqan bo'ldi. Ammo ular ham yuzaki tarzda: "Qandaysan, nima gaplar" kabi u-bu so'zlardan nariga o'tmasdi. Qarindoshlaridan biror kishi hol-ahvol so'ray demasdi. Balki, umumbo'ldi. Yana o'rnindan tur, kiyin va yashash uchun kurashishda davom et...

Mikroavtobus to'xtaydigan bekatgacha taxminan

o'n be  
daqiqa  
yulardi  
uyga q  
ga kira  
ga o'td  
kichim  
dan s  
qildila  
yotgar  
chilik  
kerak  
qilib  
bu dir  
O  
dim v  
yoq s  
gacha  
Amm  
dek g  
pam  
da k  
savd  
bo'lg  
tobu  
bost  
roav  
kel,  
baxt  
dey  
xon  
hidl  
qa

o'n besh daqiqa piyoda yurardim. O'sha o'n besh daqiqalik yo'l har kuni menga qilingan zulmdek tuyulardi. Ketayotganda qanday bo'lsa, horib-charchab uyga qaytayotganda ham undan battar edi. Ishxonaga kirar-kirmasim majlis dedilar va majlislar xonasiga o'tdik. To'rt-besh kundan beri savdo qilish ko'rsatkichim tushib ketganini muhokama qilishdi. Hammadan savol so'ragan bo'ldilar-u, aslida, meni so'roq qildilar. Bu savollarga hech qanday javob berolmayotgandim. Chunki ular haqli edi. Shu yerdan tirikchilik qilayotgandim va olayotgan pulimni oqlashim kerak edi. Noma'qulning nonini yeyolmasdim. Qisqa qilib aytganda ish unumdorligim tushib ketgandi va bu direktorga yoqmagandi...

O'sha kuni yaxshi ishlashni niyat qilib ishga tushdim va ajoyib tarzda boshladim. O'sha kunning o'zidayoq sotish bo'yicha yetakchilikni qo'lga oldim. Kechgacha rastalarni ham ko'ngildagidek holga keltirdim. Ammo soat oltida ishdan chiqishimni unutib qo'ygandek g'ayrat bilan ishladim o'ziyam. Bugun o'zimni ko'pam toliqtirib qo'ymasligim kerakligi esimga tushganda kech bo'lgan edi. Shunday bo'lsa-da, o'sha ish kuni savdo markazimizda ko'ngildagidek o'tdi. Soat olti bo'lgach, ishxonadan shoshgancha chiqib va mikroavtobus yuvishga ketdim. Yetib borganimda u yerning boshlig'i meni ko'rib tabassum qildi. "Qaranglar mikroavtobus yuvuvchi chaqqon bola keldi", dedi. "Kel, kel, Arslon, bugun bir dunyo mikroavtobus keldi baxtingga. Qani bo'l, ish kiyimlaringni kiyib chiq", deya kiyinish xonasiga ishora qildi. Ularning kiyinish xonasi deganlari garaj ichidagi bir xona bo'lib, turli hidlar dastidan chidab turolmaysiz. Ya'ni menga boshqa paytda "Mana shu yerda kiyinishing mumkin",

desalar, "Toshingni ter!" deyman. Soat olti-yu yigirma-da ishga tushdim. Bu yog'iga chaqqon-chaqqon harakat qilib, mikroavtobuslarning kelganini-kelgan zahoti: yuvib tashlashim kerak edi. Chunki bu yerda qancha ko'p ish qilsangiz shuncha ko'p pul berishadi-da. Yuvilgan mikroavtobuslar boshiga qarab haq olayotganim uchun o'zimni qiynab bo'lsa-da ko'proq ish qilardim. Ertasi kuni narigi ishimga kech boriladi. Shuning uchun dam olish bo'lsa ertaga olaveramiz deb o'ylayotgandim. Soat o'ngacha bir nechta mikroavtobus yuvdim. Sanog'ini eslolmayman-u, ammo odatdigidan ancha ko'p edi. Yaxshigina pul oldim o'sha kuni. "Aka, ertaga ham vaqtim bor, soat nechada kelay?" deb so'radim direktordan. "Shu, oltalarda kelaver", dedi. "Undan ham barvaqtroq kelsam bo'lmaydimi?" deb so'radim tag'in. "Kela qol, Arslon, sen bilan bir choy ichaylik", dedi. Menga ham, o'ziga ham bir martalik stakanga choy quydi. O'zi shakarsiz ichishi sabab mendan ham so'rab o'tirmadi. Shuning uchun shakar so'rashga iymandim. O'sha paytda menga uning nima deyishi qiziq edi faqat. Choyni olib, uning taf-tida qo'llarimni isitib turardim. Chunki muzlab qolgandim-da. Qo'l va oyoq barmoqlarimni sezmayotgandek edim.

Oyoq kiyimimdan suv kirgan ekan. Uning bir tarafti teshik ekan, ish bilan bo'lib sezmabman ham. Faqatgina poyabzalni yechayotganimdagina bildim. Qisqan uchun qiyin edi. Muzlab ketayotgandim. Shunday bo'lsa-da, nima deyishi mumkinligi menga qiziq edi. Fikrimcha, ertaga ancha barvaqt chaqirmoqchi bo'lsa kerak...

“Ikkita ishda ishlayotganingni bilaman”, dedi u. “Gapni cho‘zib o‘tirmayman. Agar narigi ishxonangda buni bilib qolishsa muammo chiqmaydimi? Bu haqida hech o‘ylab ko‘rdingmi? Ham, nima uchun barvaqt kelaman deb oyoq tirayapsan? Pul kerakligini-ku sezib turibman, dard-u g‘aming shunchalar ko‘pmi, tushunolmayapman”, dedi. Avvalroq bu masalada bir bor qoqilgandim esingizda bo‘lsa, uning ta‘sirida xulosa chiqargandim, hammaga ham ko‘ngil yorib bo‘lmasligi to‘g‘risida... Shu bois shaxsiy hayotim haqida hech narsa deyishni xohlamayotgandim. “Qo‘yave-ring, aka, shunchaki pul kerak”, dedim. “Ha, rostdan ham pul kerak. Agar ishxonamdagilar bu yerda ishlayotganimni bilib qolishsa, iltimos, Arslon qarindoshim bo‘ladi deng ularga. Qolganini o‘zim amallayman. “Qarindoshimga yordam beryapman”, deyman. Men haqimda tashvishlanmang, ertaga barvaqtroq kelishimga ruxsat bersangiz bo‘ldi”, dedim. “Buning iloji yo‘q. Oltida kelaver. Chunki baribir ish oltida boshlanadi. Agar dam olish kunlari barvaqtroq kelishni xohlasang, senga boshqa joy ham topib beraman. Ertaga-ku va‘da berolmayman, ammo kelasi dam olish kunningda boshqa yerga, yengil mashinalarni yuvishga yuboraman”, dedi. Bu gapni eshitib juda xursand bo‘ldim va: “Kelishdik, aka, yaxshi bo‘lardi”, dedim. So‘ngra “Ketishim kerak”, deya bekatga qarab yo‘lga tushdim. “Qul qiynalmaganicha Xizr uchramas emish”, degan maqol bor... Kamina uchun ham biror eshik yopilsa, boshqa biri ochilayotgandi. Alloh men bilan edi. Buni bilib turardim va O‘ziga shukr qilardim. Hech qanday ish topolmaganimda nima bo‘lardi? Sariq chaqa ham ishlolmaganimda-chi? Yoki eng yomoni, vaqt o‘tgan sari o‘zimga shunday savol berganimda:

“Qo'lingdan kelganini qildingmi o'zi, Arslon, nima uchun bajarolmading?..” Bundan yomoni bo'lmasdi...

Yana bir narsani qo'shimcha qilsam: hammasi o'z joyida, g'am-tashvishsiz bo'lganda edi, bu dunyoning imtihonligi qolmagan, qulligingni ko'rsata oladigan vaziyat yuzaga kelmagan bo'lardi. Uyga kech soat o'n birda kirib bordim. Onamga salom berib qo'llaridan o'pib qo'ydim. Hammasi yaxshi bo'lib ketishiga uni ishontirishim kerak edi. Har kuni “Xush kelding, o'g'lim”, deya kulib qarshi oladi. Mendan boshqa kutadigani yo'q edi o'sha paytda aziz onajonimning. U bilan sham yorug'ida miriqib suhbatlashsam, charchoqlarim ham chiqib ketgandek bo'ladi. Vaqt tig'izligidan, ish ko'pligidan oyog'im hidlanib qolibdi. Buni keyinroq sezdim. Onamni behuzur qilmaslik maqsadida oyog'imni yuvish uchun sekingina turib hammomga kirdim. Suv bor, lekin muzdek edi. Odamni chaqaman derdi o'ziyam. Necha kundan beri pechlar ham ishlamayotgandi. Chunki na elektr bor, na gaz...

Muzdek suvda oyoqlarimni yuvayotganda xayolimga bir narsa keldi va: “Eh Arslon, bu uyda issiqqina suv oqib turganda qadriga yetib, tahorat olib namoz o'qimading, endi esa Alloh muzdek suvda hidlangan oyoqlaringni yuvdiryapti”, dedim o'z-o'zimga. “Agar bu oyoqlarni tahorat bilan poklamasang, Rabbim istagan shaklda baribir yuvdiradi ularni”. Balki, “Boshingdan o'tganlardan dars olishni qoyillatyapsan”, dersiz. Qani endi shunday holda ibrat olmaganimda. Ya'ni, boshim devorga urilmasdan turib hamma narsani anglab yetganimda...

Ertaga dam olish kuni. Shuning uchun onam bilan birga nonushta qilishni xohlayotgandim. Tashvishlar

bilar  
tib q  
bilm  
do'st  
iltim  
va o  
turli

yapt  
ga  
uch

dus  
kan  
qils  
o'ti  
ket  
cha  
las

G'a  
An  
me  
me

ha  
xc  
ya  
ya

bilan bo'lib uyda ovqatlanish nima ekanini ham unu-  
tib qo'yibman deng. Onamning yeb-yemayotganini esa  
bilmasdim ham. Faqatgina do'konga borib sotuvchi  
do'stimdan har kuni uyga bitta non olib borib berishini  
iltimos qilardim. Ertaga Ahmad aka bilan gaplashaman  
va onamdan xabar olib turishini so'rayman. Har kuni  
turli xil o'y-fikrlar miyamni kemirayotgandi.

Ega bo'layotgan imkoniyatlarim bekorga ketma-  
yapti shukrki. Taqdirim, nihoyat, biroz bo'lsa-da men-  
ga kulimsirayotgandi. Go'yo hayot, tutib qolishim  
uchun yordam qo'lini uzatayotgandi men uchun...

Shuni tushundimki, hayot qiyinchiliklari bizga  
dushmandek tuyilganda, u yanada og'irlashib ketar-  
kan. Agar ularni shunchaki bir sinov sifatida qabul  
qilsak, kuchli ekanimizni anglab yetib, ularni yengib  
o'tish imkoniga ega bo'lamiz. Onam uxlashga o'tib  
ketgach, men ham yotog'imga cho'zildim. Bir xil ke-  
chayotgan hayot og'ushida dardu g'amlar ichida ux-  
lashga yotardim, xullas. Ish-kuch, uy, onam va men...

Og'iz to'ldirib gapiradigan hayotimiz yo'q edi.  
G'am-tashvishlar bilan andarmon edik o'sha paytlarda.  
Ammo shuni bilardimki, yolg'iz emasdim. Alloh doim  
men bilan edi. Go'yo bir duo qadar yaqin edi U Zot  
menga...

**Uchtagina harfdan tashkil topgan so'z o'z ichiga  
hamma narsani sig'ira oladi. Uning yordami bilan  
xohlagan narsangni so'rashing mumkin. Qanday  
yaxshi-ya, nima deding? Yaxshiyam borsan, ey DUO,  
yaxshiyam borsan...**

*Duo orqasidan duo qil, voz kechma.  
Hech narsani so'rashdan uyalma.  
Shuni bilginki, Alloh ato etishni  
yaxshi ko'radigan Zotdir.*

du  
va  
uch  
ha  
sal  
cha  
on  
Mu  
ni  
ma  
da  
po  
To  
pi  
pe  
za  
iji  
q  
n  
u  
d  
y  
s  
e  
N  
v  
t  
c  
h  
h

Yotar paytim har kuni yotog'imda takrorlaydigan duomni qildim: "Allohim, bizni tashlab qo'yma", deya va uyquga ketdim. Ertaga dam olish kuni. Shuning uchun miriqib uxlashni xohlayotgandim. Chunki juda ham charchagan edim. Shunday bo'lsa-da ertalab soat sakkiz yarimda uyqum qochib ketdi. O'zim o'ylagan-chalik uzoq uxlolmadim. Shu paytda oshxonaga kirib onamga nonushta tayyorlash fikri keldi miyamga. Muzlatkichni ochib qarasam (undan ko'ra ochmaganim yaxshi edi. Unga nafrat bilan boqdim, xuddi hammasiga muzlatkich aybdordek), olib kelgan pishlog'imdan biroz yeyilgan, besh-o'n dona zaytun, bittagina pomidor bor edi, xolos. Uning ham yarmi chirigan edi. To'rt-besh dona tuxum ham bor ediku-ya, ammo uni pishirishga gaz qaerda deysiz. Shu payt xayolimga pechga issiq suv qo'yib tuxum qaynatish keldi-yu, shu zahoti elektr toki ham yo'qligini eslab o'z-o'zimdand ijirg'anib qo'ydim.

Miyamdan soniyaning ulushlariga teng bo'lgan qisqa lahzalar ichida qancha-qancha o'ylar kechayotganini tasvirlab berolmayman sizga. Boriga baraka deb uch-to'rtta zaytun, yarimta pomidor, biroz pishloq qo'ydim stol ustiga. Choy damlay desam, unga ham imkon yo'q. Non qo'yay desam non ham tugagan. Uydan chiqa solib do'konga yugurdim. Non bilan sharbat olmoqchi edim.

Ammo u yerda turgan kulchalarga ko'zim tushdi. Nonushtada yaxshi ketadi deb o'ylab ikkita kulcha oldim va uyga chiqdim. Uy muzlab qolgan, onam ham o'rnidan turgan ekan. "Eshik ochilganini eshitib ishga ketding deb o'ylabman, o'g'lim", dedi onam. "Yo'q, bugun dam olish kuni, keling, sizga nonushta tayyorladim", dedim javoban. Bu gapimni eshitib onamning yuzi yorishib ketdi. Go'yo



quyosh balqqandek bo'ldi go'zal yuziga. Uyimiz ham isib qolgandek tuyuldi. Necha kunlardan beri uning birinchi jilmayishi edi-da. Buni ko'rib ichimga iliqlik yugurdi. Yaxshiyam bugun uyda ekanman. Barvaqt turganimdan suyunib ketdim. Tanamdagi charchoqlar ham chiqib ketgandek bo'ldi.

Birga nonushta qildik. Yaxshi-yaxshi orzular og'ushiga g'arq bo'ldik. "Bilasizmi siz bilan hali nimalar qilamiz. Haligi, sizni umraga yuboraman, ha", deya o'z gapim o'zimga nash'a qilib ko'krak kerib qo'ydim. Rostdan ham niyatim jiddiy edi. Bu mening eng katta orzularimdan biriga aylangandi. Har kuni duolarimda ham u bor edi. Yagona yo'l, bilganim eng ezgu yo'l shu edi - duo... Uning to'g'ri ekaniga esa yurak-yuragimdan ishonardim. Nonushta qilib bo'lay degandik hamki telefon jiringladi. O'tgan kuni menga firib bergan haydovchi edi qo'ng'iroq qilgan.

To'g'risi, menga-ku firib bergani yo'q, ammo insof degan narsadan ozgina muammosi bor edi uning. Darhol go'shakni ko'tardim "Eshitaman, aka", deya. Ish borligini, hoziroq ketishimiz kerakligini, sotiladigan narsalar soni o'tgan safargicha ekanini aytdi. Men ham qat'iy va ochiq gapirgan holda: "Aka, bunday arzimagani pul uchun mas'uliyatni bo'ynimga olib o'zimni xavfga qo'yolmayman, to'g'ri tushuning", dedim. Ammo u: "Bu gal ko'proq to'layman", dedi. "Yaxshi, kelib olib keting bo'lmasa. Hozir bo'shman", dedim. Yarim soatda kelishini aytdi.

Dushga kirib-chiqib tayyor bo'lishimga yarim soat yetarli bo'lgani sabab "Bo'пти", dedim. Ammo telefonni qo'ygandan so'ng yuvinishning ham imkoni yo'qligi esimga tushib ketdi, to'satdan. Chunki issiq suv bo'lmagandan keyin qishda hammom haqida o'ylab

han  
nin  
mol  
yan  
dir  
Am  
cha  
kut  
ni,  
bar  
bor  
ish  
o'yl  
dar  
har  
yo'

se  
mo

ham bo'lmaydi. Naq bir hafta bo'libdi deng badanimning suv ko'rmaganiga. Shu paytda tanamni ho'l ro'molcha (Vlajniy salfetka) bilan artish fikri keldi miyamga. Onamdan ho'l ro'molcha bor-yo'qligini so'radim. Onam bir nechta o'shanday ro'molcha keltirdi. Ammo ularning yarmi qurib qolgan ekan. Badanimni chala-chulpa artib, kiyimimni kiydim. Boshlig'imni kutib o'ltirish asnosida onamga ishga ketayotganimni, hali ko'p pul topishimni, bu qiyinchiliklarning barchasi o'tib ketishini aytdim. Bu gapni bir necha bor takrorladim. Ammo gaplarimga o'zimning ham ishongim kelmasdi. Bugun juda ham ajoyib o'tadi deb o'ylayotgandim. Ammo boshimga og'ir bir ish kelishidan o'sha onda xabarim yo'q edi. Nihoyat, boshlig'im ham keldi, birgalikda qaydasan ulgurji do'kon deya yo'lga tushdik...

**Hayot kutilmagan syurprizlarga to'la. Ulardan senga nima chiqishi esa bir jumboq. Bu topishmoqni umr bo'yi o'ylasang-da topolmaysan!**

## SABR YO, ISYONMI?

Yetib borgach, sovg'alarni olib, do'kon sari yurdim. Ketayotgan paytim: "Mollarni pullagandan so'ng do'kon egasi bilan bir otamlashib, keyin chiqaman", deb o'ylab borayotgan edim. Shunday xayollar bilan eshikdan endi kiraman degandim hamki, tashqariga chiqayotgan direktorga ko'zim tushdi. Biz bilan bitta sektordan, men taniydigan boshliqlardan biri edi. "Meni ko'rmagan bo'lsin-da", degan andisha bilan o'zimni bir burchakka oldim. Shu paytda "xavfli" degan gap esimga kelib, qo'rqib ketdim. Direktor to'g'ri men tomon kelib: "Bu yerda nima qilyapsan, Arslon?" desa bo'ladimi. Hayajon aralash duduqlangan holda "U-bu narsalar olgani kelgandim" kabi bir nimalar dedim, adashmasam. So'zlarning insonning bo'g'ziga tiqilib qolishi nimaligini bilasizmi? O'sha paytda xuddi shunday holga tushdim. Bunday dovdird-sovdird qilib javob berishimdan u ham hayron qoldi, nazarimda, shubhalana boshladi.

Kutilmaganda: "Qo'lingdagi chamadonda nima bor?" deb so'radi. Nima deyishni bilmay turganimni sezib, menga bosim qilayotgandi. "Qo'yavering, shaxsiy narsalarim bor" deb javob berishim kerak bo'lgan joyda qilayotgan ishim bilan mujmalgina javob berdim. "Bo'pti, ko'rishguncha, o'zingni ehtiyot qil", deb ketdi. Burchakka yashiringan holda ortidan biroz

kuz  
dar  
sir  
tus  
tez  
de  
bir  
bir  
pu  
assa  
sh  
o'z  
la  
na  
da  
bo  
li  
di  
yo  
te  
d  
o  
P  
o  
b  
e  
b  
o  
c

kuzatib turdim: haqiqatan ham ketgan edi. U ketgandan so'ng darhol telefonimga yopishib, boshlig'imizga sim qoqdim va voqeani gapirib berdim. U esa: "Hammasi tushunarli, o'zingni bos, hech narsa bo'lmaydi. Yaxshisi tezroq borib mollarni sot-u, pulni olib ortingga qayt", dedi. "Men shu yerdaman, qo'rqma", degan ma'noda bir narsalar aytgan bo'ldi. Bu gaplarni eshitib ko'nglim biroz joyiga tushdi. Do'konga kirdim, hadyalarni berib, pulni oldim va chiqdim. Tashvishlanishga hech qanday asos yo'qdek ko'rindi.

Bekorga andishalangan edim go'yo. Shunday bo'lsa-da, qadamimni tezlatib, yugurgandan beri shaklda shoshilib mashina tomon g'izilladim. Ko'p o'tmay o'zimni mashina ichida ko'rdim. Haligi, filmlarda bo'ladi-ku: "Tezroq hayda, gazni bossang-chi", deb oynani ko'taradigan qahramonlar. Men ham xuddi shunday qildim deng. "Tezroq ketaylik bu yerdan, aka, bo'ling, bo'ling..." deya hovliqdim. Gaplarimni unchalik tushunmagan bo'lsa-da, darhol mashinani yeldirib ketdi. "Nima bo'ldi o'zi?" deb so'radi sherigim, yo'lda ketib borarkanmiz. "Bilmayman, ammo direktor xotin bor-ku, o'sha shubhalangandek bo'ldi mendan. Yoki shunday tushundimmi?.." dedim. U: "Xavotir olma, hech narsa bo'lmaydi... Pul qani?" deya so'radi. Pulni chiqarib qo'lga berdim. Ulardan bir munchasini olib o'zimga qaytardi. Bu safar oldingidan biroz ko'p bo'lsa-da, oldingi sherigim berganidan ancha kam edi. Boshqacha aytganda yana mehnatimga yarasha bermadi.

Lekin e'tiroz bildirmadim. Faqatgina ichimda: "Bu odam bilan qilayotgan oxirgi ishim", dedim. Shunday desam-da, bunga amal qilolmasligimni tushunib tur-

gandim. Chunki majbur edim. Inson mana shunday paytlarda o'zini foydalaniladigan, ammo qadrlanmaydigan bir buyumdek his qiladi. Yoki juda ko'p pul zarurligi uchun menga shunday tuyilayotganmide, anig'ini bilolmay hayron edim.

H  
k  
q  
a  
y  
I  
y



*Hayotingga g'am-tashvishlar  
kirgan bo'lsa-da, ruhingni jizzakilik  
qoplab olsa-da, ichingdagi  
achchiq-taxirliklar yaxshilikning  
xabarchisidir.*

*Ishon menga, g'am chekish  
yaxshi insonlarning ishidir.*



o'n besh daqiqa piyoda yurardim. O'sha o'n besh daqiqalik yo'l har kuni menga qilingan zulmdek tuyulardi. Ketayotganda qanday bo'lsa, horib-charchab uyga qaytayotganda ham undan battar edi. Ishxonaga kirar-kirmasim majlis dedilar va majlislar xonasiga o'tdik. To'rt-besh kundan beri savdo qilish ko'rsatkichim tushib ketganini muhokama qilishdi. Hammadan savol so'ragan bo'ldilar-u, aslida, meni so'roq qildilar. Bu savollarga hech qanday javob berolmayotgandim. Chunki ular haqli edi. Shu yerdan tirikchilik qilayotgandim va olayotgan pulimni oqlashim kerak edi. Noma'qulning nonini yeyolmasdim. Qisqa qilib aytganda ish unumdorligim tushib ketgandi va bu direktorga yoqmagandi...

O'sha kuni yaxshi ishlashni niyat qilib ishga tushdim va ajoyib tarzda boshladim. O'sha kunning o'zidayoq sotish bo'yicha yetakchilikni qo'lga oldim. Kechgacha rastalarni ham ko'ngildagidek holga keltirdim. Ammo soat oltida ishdan chiqishimni unutib qo'ygandek g'ayrat bilan ishladim o'ziyam. Bugun o'zimni ko'pam toliqtirib qo'ymasligim kerakligi esimga tushganda kech bo'lgan edi. Shunday bo'lsa-da, o'sha ish kuni savdo markazimizda ko'ngildagidek o'tdi. Soat olti bo'lgach, ishxonadan shoshgancha chiqib va mikroavtobus yuvishga ketdim. Yetib borganimda u yerning boshlig'i meni ko'rib tabassum qildi. "Qaranglar mikroavtobus yuvuvchi chaqqon bola keldi", dedi. "Kel, kel, Arslon, bugun bir dunyo mikroavtobus keldi baxtingga. Qani bo'l, ish kiyimlaringni kiyib chiq", deya kiyinish xonasiga ishora qildi. Ularning kiyinish xonasi deganlari garaj ichidagi bir xona bo'lib, turli hidlar dastidan chidab turolmaysiz. Ya'ni menga boshqa paytda "Mana shu yerda kiyinishing mumkin",

Qaytishda ko'p ham gaplashmadik. Meni uyga tashlab qo'ydi. Uyga chiqib borayotganimda pulni sanab ko'rdim. Uni maoshimga qo'shib rejalashtirilgan narsalarga ishlatishim kerak edi. Elektr, gaz, ijara haqi va opamni uzatganda ko'targan qarzimiz... Xullas, hammasini to'lash kerak edi. Qisqasi, yanayam ko'proq ishlashim kerak edi.

Uyga kirsam, onam yo'q. Darhol qo'ng'iroq qildim. Oldingi mahallamizda turadigan qo'shnimiznikiga ketganini, kechga yaqin qaytishini aytdi. Aslida, ishga ketgandi. Ammo buni, oldin ham aytganimdek, bilmasdim o'sha paytda. Anchadan keyin sezib qoldim. Uyda bir o'zim o'tirgim kelmay, do'konga bordim. Do'konda o'tirgan paytim telefon jiringladi. Qo'ng'iroq qilgan kishi ulgurji savdo bilan shug'ullanadigan do'kondor edi. Mana shu qo'ng'iroqdan keyin hamma narsa o'zgarib ketdi. Qanday o'zgarib ketdi, deysizmi?

Orqaga ketdi. Juda ham orqaga... "Bundan battari bo'lmaydi", deb yurganimda bundan ham battarini ko'rdim. Do'kon egasi savdo markazimiz rahbarlaridan bir-ikki kishini borib meni so'raganini va nima uchun u yerga borayotganim bilan qiziqishayotganini aytdi. "Biror narsa demadingizmi ishqilib", deyishga ulgurmadim. "Hech narsa deganim yo'q. Bugun seni shu yerda ko'rgan ekan, ortingdan kuzatib boribdi. Qaytib ketayotgandek bo'lib, so'ngra do'kondan sekin mo'ralabdi va seni ko'ribdi. Mendan so'ragan edi, tanimasligimni aytdim. Ammo gapimga ishonishmadi", dedi do'kon xo'jayini va go'shakni qo'ydi.

Tamom bo'ldim deb o'yladim. O'sha paytda nima qilishimni bilmasdim. Bezovtalik butun badanimni chulg'ab oldi. Nima uchun qo'rqayotganimni ham bil-



masdim. Sotuvchi do'stim bu holimni ko'rib: "Yaxshimisan, og'ayni, senga nima bo'ldi?" deb so'radi va suv berdi. Rangim oqarib ketgandi. Qon bosimim tushgan deb o'ylab shokolad berdi. Balki, rostdan ham o'shanday bo'lgandir, eslasam hozir ham qalqib tushaman. Qandaydir o'n daqiqaga men uchun vaqt to'xtab qoldi o'sha payt.

Bilasizmi, miyamda yashirinib yotgan qandaydir o'laksaxo'r tasqara qushlar go'yo o'lim kuyini chalayotgandek edi. Shoshilmasdan, yaxshilab o'ylab olishim uchun xotirjamlikka ehtiyojim bor edi. Ammo ming afsuski, hayot menga doim turli xil sinovlarini ro'baro' qilayotgandi o'sha paytlarda...

Xayolimga, aka-uka ulushi mana shunaqa bo'ladi deya menga ko'p pul bergan insofli direktor yordamchisiga telefon qilish fikri keldi. Darhol shunday qildim va vaziyatni bor tafsilotlari bilan gapirib berdim. Ko'pam vahimaga tushmasligimni, tinchlanishimni, oldimga kelishini aytdi, qayerdaligimni so'radi. U yo'lga chiqdim degandan so'ng telefonni o'chirdik. Keyin ulugurji savdo do'koni egasiga ham qo'ng'iroq qildim. Vaziyatni unga ham tushuntirdim. U ham oldimga kelishni xohladi, go'yo xavotirlanayotgandek edi, ovozi sal tashvishliroq kelayotgandi-da. "Bo'ldi, ukam, xavotir olma, hozir boraman yoningga" kabi yaxshi-yaxshi gaplar aytdi. Boshqa paytlarda menga o'z xodimidek munosabatda bo'lgan odam kutilmaganda meni "uka" sig aylantirgandi.

Unga kelib ovora bo'lib o'tirmasligini, boshqa kishi bilan ko'rishishim kerakligini aytdim. "Shu ishni qilayotgan sheriklaringdan birimi?" deb so'radi. "Ha", dedim, ammo ismini aytmadim. Kutilmaganda uning otini do'kon egasi aytib qoldi, bilsam, bir-birlarini ta-

nishar ekan. Bundan xabarim yo'q ekan. Ammo "Yo'q, u emas", deb telefonni o'chirdim. Nihoyat, insofi sherigim ham keldi. Mashinasiga mingan edim hamki, narigi direktor yordamchisi unga qo'ng'iroq qildi. Bir roz gaplashishdi va u yerda ko'rishamiz, bu yerda ko'rishamiz qilib qolishdi. Men shosha-pisha: "U ham boradimi?" deb so'radim. "Ha, birgalikda gaplashib olaylik deya chaqirdim", dedi va xotirjam ovozda: "Qo'rqma, hech narsa bo'lmaydi", deya qo'shib qo'ydi.

Ammo men suvdan chiqarib qo'yilgan baliqdek qo'rqayotgan, ich-ichimdan titrayotgan edim. Ko'nglimda ishimdan ayrilib qoladigandek bir his bor edi. Endi-endi hammasini iziga tushirayotgan edim-a! Yaxshigina pul topa boshlagandim. Ikkita ishda javlon urayotgnadim. Bundan tashqari, sovg'alarni sotib qo'shimcha daromad ham qilayotgandim-da axir. Xavf-xatar deganlari naqadar yoqimsiz narsa ekanini endigina tushunib yetayotgandim. Ammo yomon niyat, qing'ir ish qilish xayoli aslo yo'q edi menda. Maqsadim faqatgina pul topish, onamga g'amxo'rlik qilish edi. Xullas, ikkinchi sherigimiz ham keldi. Yaxshi va yomon politsiyachidek edi ular. Yaxshidek ko'rinayotgani haqiqatan ham shundaymidi, buni ham bilolmayotgandim. Gaplashayotgandik, "ssenariylar" tuzayotgandik: shunday bo'ladi, bunday bo'ladi... "Ertaga ishga borganingda seni chaqirib so'roq qilishadi, ammo hech narsa aytmasang, hammasi yaxshi bo'ladi..." hokazo-hokazo gaplar. Haligi noinsof degan sherigim yana o'zini o'ylayotgandi. "Menga qara, og'ayni, mening bola-chaqam bor. Yoshim ham anchaga borib qolgan, boshqa ish ham qilolmayman. Zinhor-bazinhor bizning ismimizni aytma..." deya menga uqtirayotgandi. Narigi,

insoflisi esa: "O'zingni xotirjam tut. Mabodo, qattiq siquvga olishadigan bo'lsa, hammasini aytaver, o'zingni qurbon qilma", dedi.

O'zimni ikki o't orasida qolgan ahmoqdek his qila-yotgandim. Chunki gaplashayotgan gaplari qo'rqinch-li edi. Bu ish shunchalar xatarli va qing'ir ekanmi, hech tushunolmayotgandim. Axir sotayotganlarimiz ular uchun kelgan shaxsiy sovg'alar bo'lsa, nima uchun bunchalar xavfsirab qolishdi, nima uchun meni so'roq qilishlari kerak, hech narsaga aqlim yetmayot-gandi...

Kuning qanday o'tdi deb aslo so'ramang, do'stlar. Chunki kunimni zo'rg'a o'tkazdim. Na mikroavtobus yuvishga bordim, na boshqa ish qildim. Faqatgina onamning kelishini kutdim. Onam bilan birga o'tirdim, har kungidek suhbat qurdik, uni ruhlantirdim. So'ngra yotog'imga o'tib yotdim. Haqiqatan ham uxlashni, tongga tezroq yetishni, ichimdagi g'ashlikdan qutu-lishni xohlayotgandim. Ishqilib, hech narsa bo'lmasin-da, deya duo qilayotgnadim. Faqatgina duo...

Ertalab tura solib kiyinib ishga ketdim. U yerga borganimdan so'ng qanday voqealarga guvoh bo'la-man - buni bilmasdim. Ikki ko'zim eshikda edi. bo'lim boshlig'i, yana bir-ikki boshliq, shuningdek, meni ko'-rib qolgan rahbar ham o'sha yerda edi. Go'yo' qilich-larini olib eshik oldini manzil tutib, meni kutayotgan edilar.

Xullas, hech narsa bo'lmagandek, o'zimni xotirjam tutishga urinib, "Salom", deya yonlaridan o'tib ketayot-ganimda bir ovoz: "Arslon, bu yoqqa qarab yuborgin", dedi. Gapirgan bo'lim boshlig'i edi. Ortimga o'girilib: "Qulog'im sizda, mudirim", dedim.

Yoniga chaqirib, biroz gaplashib olishimiz kerakligini, ammo savdo markazi ichida emas, tashqariga chiqishimiz lozimligini aytdi. "Tashqarida, masalan, kafeda birga choy ichaylik", deya ko'cha tarafga ishora qildi. Tabiiyki men "Yo'q", deyolmadim. Kafe sari yura boshladik. Savdo markazidan hamma bizga qarab turardi. Jamiki hamkasblar nimadir bo'lganini anglagan edi. Faqatgina men tushunolmayotgandim o'sha "bir nima"ni. Nima bo'lishi mumkinligini o'sha paytgacha ham tasavvur qilolmayotgandim. Birgalikda kafega kirdik, boshliq choy aytdi, o'tirdik.

Bo'lim boshlig'imiz gapira boshladi: "Menga qara, Arslon, seni juda ham hurmat qilamiz, aqlli va yaxshi bolasan. To'g'ri, biroz shoshqaloqliging bor, erkalinging ham yo'q emas, ammo insoniylicing va mehnatkashliging tahsinga loyiq", degan chiroyli so'zlar bilan boshlab, oxiri: "Kecha nima qilding?" deb so'radi. Men ham kecha ul-bul xarid qilish uchun bozorga borganimni, u yerda narigi bo'lim boshlig'ini uchratganimni aytdim. Bularni gapirarkanman, haqiqatan ham qattiq bezovta edim. Chunki ko'rib qolgan edilar-da... Men esa nima ish qilayotganimni ham anglolmayotgandim. Haligi, inson bir ayb qilib qo'yib, boshqa kishining ismini tilga olib hamma narsani unga to'nkaydi-ku, suvdan quruq chiqay deb. Xuddi kinolar-da ko'radigan voqelalarimiz deysiz...

Ana shunday bir ayb menga qo'yilayotgandi. Ammo o'sha gunohning nima ekanini ham bilolmay hayron edim. O'zi-ku, hammasini aytib bersammi deyotgadim-u, ammo haligi noinsof sherigim aytgan: "Bolamchaqam bor, yoshim ham anchaga borib qoldi, aytsang men tamom bo'laman..." gapi esimga tushib ketdi.

“To‘g‘ri, men ham og‘ir ahvoldaman. Lekin endi yigirma ikkiga kirdim axir. Ishdan haydalgan taqdirda ham boshqasini topa olaman”, deya yaxshi niyat qilishda davom etdim.

Bo‘lim boshlig‘i so‘roq qilishda davom etdi va baqirgancha, yuziga vajohatli tus berib: “Kecha nima qilganingni aytmasang, boshingni urib yoraman, keyin esa ishdan haydayman”, deya jahl qildi. Bunga javoban men ham qat‘iy va baland ovozda: “Aytganlarimni eshitmadingizmi, bundan boshqa gapim yo‘q”, dedim. Bu gapni eshitib, kecha orqamdan kuzatgan rahbar: “Menga qara, Arslon, o‘zingni bos va yaxshilab o‘ylab ol. Bularni boshqasidan olib sotganingga aminmiz. Bu sening qo‘lingdan keladigan ish emas. Aql bor, mantiq bor axir... Bor-yo‘g‘i pul topish uchun shunday qilding, yomon niyating yo‘q edi, bilib turibmiz. Bizga shunchaki kim yoki kimlar bilan ish qilganingni ayt. Evaziga lavozimingni ko‘taraylik: Nima deding? Ham ko‘taril, ham maoshing oshsin, ham bahonada bunday qing‘irlikni qilganlarni oramizdan yo‘qotaylik”, dedi. U shunchalar mantiqli va kishiga yoqadigan so‘zlar aytdiki, bularni kim ham istamaydi, deysiz!..

Bu, bir qarashda juda yaxshi taklif edi. Chunki ham maoshim ortadi, ham lavozimim ko‘tariladi, ham menga noinsoflik qilgan haligi boshliq yordamchisidan alamimni olaman. Shunday bo‘lsa-da, bunday qilishga vijdonim yo‘l qoymadi. “Sizlarga bundan boshqa gapim yo‘q”, dedim va savdo markaziga borib ishimni davom ettirishim kerakligini, gaplashadigan boshqa narsa yo‘qligini takroran aytdim. Bo‘lim boshlig‘imiz biroz shashtidan tushib: “Senga soat ikkigacha muxlat, toychog‘im, agar hammasini aytib bermasang,

mendan xafa bo'lib yurma", dedi va o'rnidan ildam turib, ketdi. Meni ko'rib qolgan bo'lim boshlig'i esa: "Maslahatim, birovlar uchun o'zingni xavfga qo'yma, hammasini aytib ber", dedi, menga achingan bo'lib. Ishlaydigan joyimga kirganimda bo'lim boshlig'imiz: "Hozircha ishingni davom ettirib tur, keyinroq gaplashamiz", dedi.

Hamkasblarim oldiga borsam, hamma "Nima bo'ldi, nima bo'ldi, Arslon?" deya savollar yomg'irini yog'dira ketdi. Barchaga: "Hech narsa bo'lgani yo'q, nari turing mendan", deya baqirgim kelayotgandi. "Nari turing mendan", deyishimdan yana bir maqsad, "Menga qo'shilib siz ham boshingizga balo orttirib olmang, tag'in men bilan gaplashib turib shubha ostida qolib ketmang", degan jummalarga ishora qilish edi.

Axir men nima ayb qildim. Bunchalar noto'g'ri sanaladigan qanday gunoh ekan bu? O'ylay-o'ylay miyam portlab ketayozdi. "Bilamiz, sen shunchaki pul topish uchun qilgansan", deyishdi. Modomiki, bilar ekanlar, nima uchun menga hujum qilishyapti hammalari bir bo'lib? Nima uchun? Bosh direktor meni, xonasiga chaqirdi.

Kirishim bilan, gapni cho'zib o'tirmay maqsadga o'tib qo'ya qoldi. "Menga qara, Arslon, boshliq-xodim munosabatini bir chetga surib qo'yaylik-da, yaxshisi, sen bilan opa-ukadek gaplashib olaylik. Bir qator muammolaring borligini bilaman. Qiyinchiliklar insonni noto'g'ri yo'llarga boshlashi mumkin. Bunday paytlarda kishi to'g'ri-noto'g'rini farqlolmay qoladi. O'ziga nima zarur bo'lib turgan bo'lsa, o'shanga qarab ketaveradi va tap tortmay u ishga qo'l uradi. Noto'g'ri ekani ko'ziga ko'rinmaydi... Qilgan ishing o'ta xato. Chunki

boshqasidan olib sotganingni bilamiz...” deyotgan paytida gapini bo‘lib: “Men nima qilibmanki noto‘g‘ri deyapsiz? Hech narsani tushunmayapman”, dedim.

Aslida, sezib turganingizdek, o‘zimni go‘llikka so‘layotgandim. Lekin bunday holga birinchi bor tushganim bois tashqaridan qaraganda bu narsa sezilayotgandi. Ammo vaqti kelib dovdiramalikni ham o‘rganib olaman. Chunki hayot insonni shunday ishlariga duchor qilarkanki, borib-borib olim bo‘lib ketarkan.

“Gapimni bo‘lma”, deya baqirdi direktor. “Menga qara, yana bir marta takrorlayman: opa-ukadek gaplashyapman sen bilan. Bu yog‘iga nima bo‘lishini birma-bir aytaman, shunga qarab bir qarorga kel”, dedi va boshladi: “Sen-ku o‘lsang ham hech kimni sotmay, fidokorlik qilishing mumkin, ammo undan keyin savdo markazimiz sha‘niga qora dog‘ tushadi va u boshqa savdo-sotiq majmualariga ham ta‘sir qiladi. Xullas, bu qing‘ir ish butun sektor, butun bo‘limlarning gardanida qoladi. Ya‘ni undan, Turkiyada savdo markazimizning qancha mijoz bo‘lsa, hammasi xabar topadi. Sharmanda bo‘lamiz. Haligi isnodga atalgan aybnomada shunday yoziladi: “Qilgan o‘g‘riligi uchun Arslon K.ning ishdan bo‘shatilishini ma‘lum qilamiz”. Bu gapni eshitib ko‘z oldim qorong‘ilashib ketdi. “Qanaqa o‘g‘irlik axir! Nima deyapsiz o‘zi?!” deya baqirib boshladim.

Bu qanaqa imtihon bo‘ldi-a, yo Rabbim, undan qanday qilib omon chiqaman endi. Bu qanday qing‘irlik ediki, otini o‘g‘irlik qo‘ydilar. O‘z og‘izlari bilan: “Buni sen qilmagansan”, deb turib qaysi aql bilan meni o‘g‘riga chiqaryaptilar? Darhol kallamni ishlatib, yuz berayotgan narsalarni oqilona baholashga majbur

edim. Shu payt xayolimga, meni qo'rqitmoqchi, jahlimni chiqarib og'zimdan gap olmoqchi ekanlari keldi. Bunday o'ylab qaragam, mening bunday ishga qo'urmasligimni, urmasligimni ular ham bilardi. Ustiga-ustak, bunga dalillari ham yo'q edi.

Axir sotilgan narsalar shunchaki sovg'a bo'lsa, o'g'irlik sodir bo'lishi uchun nimadir o'marilishi kerakmasmi?

Ular hiyla qilishayotgandi. Buni bilib turardim. "Qanday tusga kirsangiz kiring, qanday usul qo'llasangiz qo'llang, baribir mening aybim yo'q. Nima desangiz-da, u o'z gumoningiz. Sizlarga aytadigan gapim yo'q. Ishdan haydaysizmi, nima qilsangiz qiling, ammo men hech qanday ayb ish qilganim yo'q", dedim. So'ng eshikni qarsillatib yopib chiqib ketdim. Qaragam, eshik tagida hamkasblarim kutib turibdi. Hammaga yaxshi munosabatda bo'lardim ishxonada. Shuning uchunmi, meni yoqtirishardi. "Hey og'ayni, gapirsang-chi, nimalar bo'lyapti o'zi?" deya so'roqqa tuta boshladilar. Ammo hech kimga biror narsa deyish niyatim yo'q edi. "Menga o'yin qilishyapti, hamma narsani bo'ynimga qo'yishmoqchi", deb o'ylayotgandim. Hamma hayron edi. Hech kim hech narsa tushunmayotgandi.

Ishxonada favqulodda holat e'lon qilindi, hech kim hech kimga hatto salom ham berolmayotgandi. Barcha muzlab qolgandek edi. Jimgina o'z ishlari bilan andamon bo'layotgandilar. Men esa bir burchakka biqingan holda nima qilishimni bilmay o'tirardim. Hojatxonaga chiqib kelish bahonasida sheriklarim bilan maslahatlashib olmoqchi bo'ldim. Xayolimga kelgan yagona fikr shu edi. Ammo bunday qilishga jur'at etolmayotgandim. Shunday qo'rqqandimki, hamma narsa



ustimga bostirib kelayotgandek, barcha narsa menga qarshi dalil sifatida qo'llanadigandek tuyilayotgandi. Hayotimda birinchi marta mana shunday muammoga duch kelayotgandim. Qo'rquv bahaybat tog'dek ustimga yiqilgandek edi go'yo. Na o'zimga kela olaman, na yo'limni topa olaman. U yerdan chiqib ketolmayotgan, g'amlar ostida ezilayotgandim.

Vaqt daryodek oqib borardi. Nima bo'lishini andisha bilan, to'g'rirog'i, tashvish va bezovtalik bilan, hech qanday ish qilmay, qo'l qovushtirib kutayotgandim. Boshqacha aytganda chorasiz holda edim.

Bo'lim boshlig'imiz oldimga kelib: "Bu oxirgi qaroringmi?" deb so'radi. Qo'lida telefon, kim bilandir aloqada edi. Bu savolga javoban men ham: "Qanaqa oxirgi qaror", deya so'radim. "Tushunmadim", deb qo'shib qo'ydim orqasidan. "Seni kim bu ishga boshlaganini aytmayсанmi, o'zingni ko'ra-bila turib halokatga boshlamoqchimisан?" dedi. Men esa: "Nima deytganingizni haliyam tushunganim yo'q, aytadiganimni aytib bo'ldim", dedim. U menga javob bermay turib telefonga gapirdi: "Janob direktor, uning chorasini ko'ravering, fikri haliyam o'sha-o'sha emish", deya go'shakni qo'ydi. Gapini tugatar-tugatmas kompyuterlar turgan joyga qarab yurdi. Men esa: "Hojatxonaga borishim kerak", deya boshliqqa so'z qotdim. Ammo rahbarim baqirib: "Yo'q-yo'q, bu yerga kel, bunga qara", deya meni chaqirdi. Borib kompyuter tomon egildim va sarlavhani ko'z qirim bilan o'qidim. Unda: **"BARCHA SAVDO MARKAZLARI VA TA'MINOTCHILAR DIQQATIGA. BU JUDA MUHIM"**, deb yozilgandi...

"Ishqilib, bildirgining ichida hech narsa yozilmagan bo'lsin-da", deya duo qildim. Ammo bor-yo'g'i birgina

jumla bor edi. Kompyuterga yanada yaqinroq bormay turib uni o'qishning imkoni bo'lmadi. Hali yozuvni o'qishga ulgurmagan edim hamki, boshlig'im: "To'xta, yaxshisi, baqirib-baqirib o'zim o'qib beraman, hamma eshitsin", dedi. "Savdo markazida ishlaydigan Arslon K. o'g'irlikda ayblangani uchun egallab turgan lavozimidan ozod qilinishini so'raymiz".

O'sha onda osmon boshimga tushgandek bo'ldi. Hech qanaqa ish-pish haqida o'ylayotganim yo'q edi. Menga botib ketgani bildirigidagi "o'g'irlik", "o'g'ri" so'zlari edi. Axir qanday qilib?..

Bunday vaziyatda qanday qilib, qaysi dalilga tayanib bir kishiga "o'g'ri" degan tamg'a yopishtirish mumkin? Endi ota-onamga nima deyman? Nima qilaman endi? O'z-o'zimga ham javob berolmayotgandim. Qo'ygan bu ayblari juda ham og'ir botgandi. "Kimdir boshimdan muzdek suv quyib yuborgandek holga tushdim", degan edim sizga sal oldinroq. Aslida, suv emas, azot kislotasi to'kildi. Lov-lov yona boshlaganimni his etdim. Mana shunday shok holatida, ko'zlarimga yosh aylanib qotib turarkanman, buning aksi o'laroq boshlig'imiz jim o'tirolmadi. Darhol ishdan bo'shatilish buyrug'imni kompyuterdan chiqardi va oldimga qo'yib: "Imzola", dedi.

O'qimay turib qo'l qo'yib yubordim. "Alloh sizning baloyingizni bersin. Bu nohaqligingizni ko'rmayapti deb o'ylaysizmi?!" dedim. Bu gapni aytdim-u, ko'zlarimdan yosh quyilib kela boshladi va beixtiyor kurtkamni olib tashqariga otildim. Ishdan haydab yuborishmasin yana deb qo'rqishganidan, orqamdan hech kim chiqmadi ham. Chunki biror kishi gumon ostida qolishni xohlamasdi. Menga juda katta ayb qo'yishgandi.

Tashqariga chiqqach, bir burchakdagi o'rindiqa ko'zim tushdi va unga o'tirib yig'lay boshladim. Na kimdandir uyaldim, na kimdandir hadiksiradim: o'kirib-o'kirib yig'ladim. Shunday yig'ladimki, do'stim, butun vujudim mushaklari bo'shashganidan, hushimdan ketar darajada yengil bo'ldim. Qiynog'-u azoblar ko'rgandek emas, bo'm-bo'sh, hech narsani sezmaydigan holga tushdi a'zoyi badanim. Aslida esa, qiynoqdan ham battar edi boshimga tushgan ko'rgilik.

Shu payt yonimga o'rta yoshlardagi bir kishi keldi va: "Hoy yigitcha, tuzukmisan, nima bo'ldi?" deb so'radi. Unga zardali ohangda: "Tinch qo'ying meni", dedim. Aslida, u noto'g'ri gapirmagan edi. Mendan hol so'ragandi. Ammo o'sha paytda biror narsani eshitgim kelmayotgandi.

Yig'lab bo'lgach, insofli sherigimga qo'ng'iroq qildim. "Bildirgini o'qidim, shunqorim, bekordan-bekorga o'zingni fido qilding. Koshki birortamizning otimizni aytganingda", dedi u. Keyin qo'shib qo'ydi: "Qayerdasan, yaxshimisan o'zi? Oldingga boraman. Kechki payt, ishdan chiqib, bafurja gaplashib olamiz". Keyin esa noinsof sherigimga qo'ng'iroq qildim. Ammo go'shakni olmadi.

Qaysarlik bilan qayta-qayta sim qoqdim, u ham qaysarlik bilan baribir javob bermadi...

Ichimdan qarg'ishlar-u, qo'pol so'zlar dengizdek mavj urayotgandi. Ularning hammasi insofsiz sherigimga atalgan edi. Xayolimda shunday baqirayotgan edimki, oldimda bo'lsa, gapirishimga ham hojat qolmasdi. Ko'zlarimdan ularni o'qib olardi-yu, orqasiga qaramay quyon bo'lardi. Yaxshi xulqli bo'lishim ham mumkin edi. Ammo tabiatan dag'alroq bola edim. Shuning uchun mendan noodatiy xatti-harakatlarni

kutish mumkin edi. Haligi qo'pollik, jahldorlikning mendan qaysi paytda, qaerda, qanday vaziyatda sodir bo'lishini bilib bo'lmasdi. Hammasiga hadyalarni sotib olgan do'kon egasi aybdor. O'sha sotgan meni (birpasda mana shu fikr miyamga keldi). Darhol o'rnimdan turib, bekat sari yurdim. Uni do'koni bilan bitta qilishga qaror bergandim.

Nihoyat, uning do'koniga ham yetib bordim. Kirish bilan janjal ko'tarmoqchi edim-u, mijozlari borligini ko'rib jahl otidan tushdim. Borib bir burchakda mijozlari ketishini kuta boshladim. Bu orada menga: "Xush kelibsan, Arslon", dedi. Ammo unchalik xush kel-maganimni avzoyimdan anglab turardi. Mijozlari tash-qariga chiqishi bilan menga: "Tinchlan, baqir-chaqir qilma yana. Bu yer nondek tabarruk joy", dedi. U topib gapirgandi. Ya'ni, nondek aziz joyda (jamoat joyida) odobli bo'lish kerakligini eslatgandi. Shunday bo'lsa-da, dag'dag'a bilan: "Meni nima uchun sotding, senga nima yomonlik qilgandim?" deb o'shqirdim sansirab. U esa menga: "Bu nima deganing, sotqinlik-ning ko'-chasidan o'tgan bo'lsam o'lay agar. O'sha kuni seni ko'rib qolishibdi.

Orqangdan kuzatib kelishlarini qayerdan bilay. Boshliqlaringizni ham tanimasam. Aslida, ehtiyot bo'lishi kerak bo'lgan kishi sen eding, Arslon, hamma aybni menga to'nkama", dedi. Biroq gaplariga ishonmadim. O'tirgan joyimdan sakrab turib: "Senga ham boqqan balo bordir. Ilohim, mening kunim boshing-ga tushsin, xonavayron bo'l, xor bo'l, zor bo'l! Yoshi ulug' bir odam bo'lsang, endi senga qo'l ko'taraymi-a? Otam tengisan. Shuning uchun chertmayman ham. Ammo qarg'ishim bir kuni yoqangga yopishadi", deya do'kondan chiqib ketdim.

Do'kondan chiqqan edim hamki, telefonim jiringladi. Qarasam, noinsof sherigimning esiga tushib qolibman. Ha, menga ham, sizga ham yoqmaydigan o'sha qurumsoq. Qilgan "yaxshiliklari"ga javoban yana uni kitobimga kiritib o'tiribman-a!..

Go'shakni ko'tara solib, salom berish o'rniga: "Nima uchun qo'ng'irog'imga javob bermaysiz", deya baqirdim. U ham menga baland ovozda: "Nimalar de-yapsan, tinchlikmi?.. O'zingni bosib ol bundoq!" dedi.

Nima emish, janobi oliylari uyda ekanlar-u, telefon ovozini eshitmay qolibdilar. Ahmog'ingni topib-san... Axir telefonda qo'ng'iroq qilgan kishining raqami ko'rinadi. Shuncha vaqt ichida telefoniga bir bora bo'lsin qarab qo'ymaydimi odam? Boshimga tushganlarni bilmasa ham mayliydi... Ustiga-ustak bu hodisa butun ishxonada doston bo'lganiga aminman. Bundan bexabar qolish uchun kar bo'lish kerak. Bunday voqea, balki, savdo markazi tarixida birinchi bor bo'layotgandir... balki...

Noinsof sherigim kechki payt bafurja gaplashib olishimizni aytib telefonni o'chirdi. Undan rahmat kutmayotgandim. Ammo inson mard bo'lishi, odamiyliyini yo'qotmasligi kerakmasmi?

Qizig'i, "Hech narsa bo'lmaydi, bor, sot va qaytib kelaver qo'rqmasdan", degan o'zi edi.

Hadyalar ham uniki edi. Yana deng, bola-chaqasini o'ylab, o'zimga zarar bo'lsa-da, so'roq payti hech narsa demagan edim. Bu qanday arosat bo'ldi? Go'yo oldim-da shayton-u orqamda farishta.

Ikkisi ham meni chaqirayotgandi. Ammo hech qaysisining yoniga borolmayotgandim. Uchinchi tanlov esa turgan joyimdan o'zimni pastga tashlash edi. Fikrimcha, men mana shu oxirgisini tanlagandim.

Yani ko'rib-bila turib o'zimni qurbon qilgandim. Miyamda esa birgina o'y: onamga nima deyman endi? Buni eshitish uni battar tushkunlik botqog'iga botirardi. Axir to'g'ri yurgan, halol ishlaydigan bola bo'lsam, bunday ko'rgilikni Alloh menga nima uchun ravo ko'r-di ekan?..

Shunday qilib yemagan somsamga pul to'ladim. O'sha paytdagi ruhiy holatimni tushuntiray desam so'z topolmayman. Bir qo'shiqda aytadi-ku: "O'lim ka-bi bir narsa bo'ldi, ammo hech kim o'lmadi". Xudo haqqi, o'sha paytdagi holatim xuddi ana shunday edi. O'limga teng musibat kelib, meni tiriklayin tuproqqa ko'mdi. Ammo hali ham yashayotgandim. Nafas olayotgan, ammo ruhsiz bir tana edim, xolos. Jonim hi-qildog'imga tiqilib turgan, lekin chiqmayotgandi o'sha paytlar...

**Qiyinchiliklarga qanchalik sabr qila olsang va hamma narsa Allohdan ekanini bilsang, to'siqlarni oshib o'tib, qiyinchiliklarni mahv eta olasan. Ha, sen bunga qodirsan!**

*Dunyo intiho topsa-da,  
umringning so'nggi bekatida  
turgan bo'lsang-da,  
chiqmagan jondan,  
joningdagi Allohdan umid uzilmaydi.*



Onamga hech narsani aytmaslikka qaror qildim. Mikroavtobus yuvishda davom etaman va shu orada ish topishga ham harakat qilaman. Bu rejalarimni tezroq amalga oshirishim lozim. Chunki pul juda zarur. Ishdan ham bo'shadim. Maoshim beriladimi yo'qmi bilmasdim, sababi, bo'shsh to'g'risidagi qog'ozga imzo qo'yayotganimda bunaqa band bor-yo'qligiga qaramabman.

Tezroq kech tushushini va menga sheriklarimning qo'ng'iroq qilishini kutayotgandim. Ishxonadagi xodimlar haydalganimni eshitib ketma-ket qo'ng'iroq qilishayotgandi. Ammo go'shakni ko'taradigan yuz qaerda deysiz. Haqiqatan hamma meni o'g'ri deb o'ylaydimi endi?.. Bu voqea menga juda ham og'ir botdi ochig'i. O'zimcha to'g'ri deb bilgan narsamni qilgandim. Bola-chaqasi bor deya hech kimni sotmaganim. Bu to'g'ri yo'lmidi o'zi? Siz ayting: eng to'g'risi shumidi?

O'sha paytda buning to'g'ri yoki xato qaror ekanini bilolmayotgandim. Lekin ko'proq xato qilganga o'xshardim. Xayolimga bir fikr kelgani kelgan edi: "Har yaxshilikda yomonlik, har yomonlikda yaxshilik bordir, buni faqatgina Alloh biladi, biz bilmaymiz". Kunning bu paytida uyga kirolmasdim, shuning uchun o'rtog'imning do'koniga bordim. Agar uyga kun kech bo'lmasdan turib kirib borsam, onam: "Tinchlikmi, o'g'lim, barvaqt qaytibsan?" deb so'rardi. Bu savol qarshisida jim turaverardim keyin. Telefonim hech tinchimayotgandi, qo'ng'iroq ustiga qo'ng'iroq, SMS ustiga SMS...

"Bun-day vaziyatdan faqat o'lim qutqara olardi meni", deyotgandim o'z-o'zimga. Do'konga ketguncha nimalarni o'ylamadim deysiz. Nimalarni...



Do'konga kirganimda avzoyim bir ahvolda edi. Qo'rquv, tushukunlik, umidsizlik, horg'inlik - otini nima qo'ysangiz qo'ying, bunday taslim bo'lib o'limni bo'yniga olgan askardek holimni ko'rib darrov nima bo'lganini angladi o'rtog'im. Salom ham bermay turib "Nima bo'ldi, tinchlikmi?" deb so'radi. Ammo o'sha paytda shunday ruhiy holatda edim-ki, nima bo'lgani haqida gapirib berishga ham majolim qolmagandi. Bunday og'ir yuk meni ezib qo'ygandi. Shuning uchun hech narsa demadim unga. "Qo'yaver, aytarlik hech narsa yo'q", desam-da, bir nima bo'lgani shundaygina yuzimdan bilinib turardi. Tezroq telefonim jiringlashini va kelib meni olib ketishlarini, bu ahvoldan qutulishni kutayotgandim.

Nihoyat, sheriklarim yonimga birgalikda kirib kelishdi. Bu holdan hayron qoldim. Chunki ikkilasi ikki xil fe'lli edi. Ularning birga ishlashi mumkin emasdi. To'g'ri, hamkasb sifatida o'zaro begona emasdilar, ikklasi ham bir-birining sovg'a sotganini bilardi. Ammo yonimga birga kelishgani menda shubha uyg'otdi. Mashinaga minar-minmasim: "Endi holim nima kechadi?" deb so'radim. "Xotirjam bo'l, avvalo, biror yerga boraylik, o'tiraylik, o'sha joyda bafurja gaplashib olamiz", dedi meni tushunadigan, insofli sherigim, direktor yordmachisi Furqon. Insofsiz sherigim Serjon darhol gapga aralashdi: "Ko'pam andishalanaverma, oshna, nima, senga ish qurib qolibdimi? Eng to'g'risini qilding. Bu yog'iga hammasini hal etish bizdan", dedi. Uning yuzida yengilgina kulgi izi bor edi. Go'yo boshimga tushganlardan huzurlanayotgandek edi. Yoki katta bir balodan qutulib qolgani uchun kayfiyati yaxshimikan?

Avzoyim borgan sari buzilayotgandi. Jahlim chiqayotgandi. Mashinani bir chekkada to'xtatdilar. Ikki qo'lim boshimda edi. Xuddi uni ushlab turmasam, yorilib ketadigandek tuyilayotgandi. Oyoqlarimni esa asabiy qimirlatib turardim. Tishlarimni g'ichirlatib qattiq qisayotgandim. Kayfiyatim o'ta rasvo edi. To'xtagan joyimizda do'kon bor edi. Furqon aka: "Borib ichishga biror narsa olib kelay, tomoqni ho'llab olamiz. Sen nima ichasan?" deb so'radi. Hali ovqatlanmagan ham edim. Qon bosimim tushib ketayotgandim, bilmayman-u, xuddi hushimdan ketib qoladigandek holda edim. Furqon aka nima olib kelay, deb so'ragandagina ochlik va holsizlikni his etdim...


"Aka, menga bitta keks ham qo'shib oling", dedim. Serjon ham nimalardir buyurdi va Furqon aka mashinadan tushib, do'kon tomon ketdi. Shu payt Serjon shosha-pisha gap boshladi va: "Xotirjam bo'l, senga zudlik bilan yaxshi ish topib beramiz. Tashvishlanma, akalaring yoningda" deganda o'xshagan bir nimalar dedi. Ammo aytganlarini to'liq tushunolmayotgandim. Ko'zlarim yumilib ketayotgandi. Xayolim faqat Furqon akada edi. U tezroq kelsa-yu, keksni yeb olsam. Qon bosimim tushib ketgani aniq. Shifokor emasman-u, ammo o'zimdanda o'tganni o'zim bilaman. Ahvolim chatoq edi. Axir o'zi vaziyat ham yaxshi emasdi-da. Hammasi rasvodan, rasvo edi...

Furqon aka kelguncha Serjonning hech bir gapi qulog'imga kirmadi. U kelib, menga keks va shokolad. Shokoladni yeya boshladim. Furqon aka mazam bo'lmayotganini tushundi. "Ahvoling yaxshimi, Arslon? Suvdan ham ichib ol, o'zingga kelasan", dedi. Shokoladni yegandan keyingina biroz o'zimga kel-

dim. Gavdamni orqaga tashladim. Suv ichdim. Keksni esa bir chekkaga qo'ydim. So'ngra kutilayotganidek, baqirib-chaqirib, qarg'ab-so'ka boshladim ularni. "Endi holim nima kechadi, javob berlaring", deya ikkalasiga ham o'dag'ayladim. Furqon meni tinchlantirishga urinar, Serjon esa xavotir bilan qarab turardi. Biror narsa deyishga yuzi yo'q edi. Chunki hammasiga u sababchi. Men norasida bolalarini o'ylab, ayb bo'ynimga qolsa-da g'ing demagandim. "Hayronman, inson o'zini ko'ra bila turib olovga otadimi hech zamon?" deyman-u, nima qilay, vijdon deganlari ham bor-da... O'shaning ta'siri... Balki, bu ahmoqlik edi. Bilmadim...

Furqon "Hammasi yaxshi bo'ladi, mana men ayt-yapman senga", deya-deya oxiri meni tinchlantirdi.

*Allohning aytgani bo'ladi.  
Chekqamiz dardu g'amni.  
To'kqamiz ko'z yoshlarni sel kabi.  
O'ldik deymiz, ammo o'lmaymiz.  
Aslida, duo qilishni unutib qo'yganimizda  
chorasiz holga tushamiz – bilmaymiz.*



Bu orada tinmay telefon ham jiringlayotgandi. Qo'ng'iroq qilayotgan ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi do'kon egasi edi. "Buning nima ishi bor ekan endi", deb g'o'ldiradim Furqon akaga qarab. "Kim ekan u?" deb so'radi. "Hamkorimiz", dedim. "Ol-ol, birorta xodimi ketib, sotuvchi kerak bo'lib qolgandir, balki", dedi. U to'g'ri aytayotgandi. Bu xayolimga ham kelmagan ekan. Go'shakni ko'tardim. Do'kon egasi tantanavor ohangda: "Bo'sh payting oldimga kirib o't, gaplashib olaylik. Bugun sen bilan gaplashib bo'lmasdi, juda ham jahling chiqib turgandi", dedi. Endi aslo bormasligimni, menga qilgan nohaqligini unutmaganimni aytgan holda hali ham shashtimdan tushmaganimni bildirdim. Furqon ancha o'zimni bosib olganimni anglagan holda: "Endi bafurja gaplashsak ham bo'ladi", deya gapga qo'shildi va ochiq-oydin mendan: "Sen ahmoqmisan, oshna, nima uchun hamma aybni bo'yningga olding?" deb so'radi.

"Sizlarni qanday sotardim, aka, axir Serjon aka "Mening bola-chaqam, uy-ro'zg'orim bor", deb Xudoning zorini qildi, "Yoshim ham bir joyga borib qoldi", dedi. O'shanday holda nima qilishim kerak edi? Qaysi vijdon bilan aytardim uning ismini? U zinhor nomimni tilingga olma, yo'qsa, tamom bo'laman, demadimi? Demadingizmi, aka? Demadingizmi deya-man?"

Serjon aka yuzidan nima o'ylayotganini bilib bo'lmaydigan darajada sovuqqonlik bilan: "Ha, aytdim. Ammo ishdan haydashgacha boradilar deb o'ylamagandim. Buyruqni ko'rgach, miyamdanda o'q yegandek bo'ldim, Xudo haqqi", dedi. "Xudo haqqi", degan bo'lsa-da, gapiga ishonmadim. Uning sovuqqon yuzini ko'rganingizda siz ham ishonmasdingiz. Furqon Ser-

jonga o'girilgan holda: "Sen qaysi kalla bilan bunday deding? Pulni shaqillatib sanab olayotshganda yaxshi-yu, biror muammo chiqqanda tashlab qochish ekan-da. Endi nima bo'ladi? Bu bola, qayerga bosh uradi? Qaysi eshikni taqillatadi? Dardi bormi, nima tashvishi bor - bilasanmi birortasini?" deya Serjonga baqirib berdi.

Aslida, Serjon hamma muammolarimdan xabar-dor edi. Unga boshida aytib bergandim pul nihoyatda zarurligini. Furqon aka hech narsani bilmasa ham, undan ancha farosatli edi, masalamga akalarcha munosabat bildirayotgandi. Serjon esa uyat degan narsadan butunlay begona bir kimsaligini namoyish qildi: "Axir qayerdan ham bilardim bunday bo'lishini, bilganimda shunday qilarmidim. Nima dey bo'lmasa, Arslonga qulluq qilaymi, hayotimni saqlab qolding deya, Alloh-Alloh! O'zi ham bilardi mana shunday bir xavf borligini. Xo'sh, nima qilay, bo'lar ish bo'ldi endi".

Bu gapni eshitganda tishlarimni qisganimdan, ya'ni jahlimni tiyib turishdan portlash arafasida edim. Furqon Serjonni qo'pol bir so'z bilan so'kib berdi. Serjon mashinadan tushib sigaret tutatdi. Eshikni esa yuzimizga yopgandek qattiq yopdi. Men esa qo'l qovushtirib kuzatayotgandim. Bu achinarli holimni kuzatayotgandim... O'lishimni kuzataotgandim...

Omonatimni topshirayotgandim go'yo. O'sha paytda sal bo'lsa yig'lab yuborar holda edim. Faryod-u fig'onim ichimda portlayotgandi. Serjon telefonda kim bilandir gaplashgan holda mashinadan uzoqlashdi. Furqon qat'iy ohangda: "Ukam, biror narsa kerak bo'lsa aytaver uyalmay, balki, yeyish-ichishga puling yo'qdir. Bunaqa narsalardan tortinib o'tirma. Men

sening akangman", deganda uni quchoqlab olishingga  
oz qoldi.

Ammo bunday qilolmadim. Hatto quchoqlashga ham holim yo'q edi. Rahmat aytdim. Kulimsiragan bo'ldim. "Tezroq ish topishim kerak", dedim. "Menga o'zing haqingda yozma ma'lumot olib kel. Boshqa savdo markazlariga borib ko'ramiz. Birga izlaymiz va topamiz biror ish. Hozir biror narsa kerakmi senga?" deb so'radi. Nimasini aytay, ehtiyojim ko'p edi: gaz, elektr, ijara haqi; ukam, onam... xayolimdan nima-nimalar o'tmayotgandi o'sha kezda. Ammo "Rahmat"- dan boshqa narsa deyolmadim...

Bu gaplarni, aslida, mendan Furqon emas, Serjon so'rashi kerak edi. Lekin bunga yuzi yo'q. Bemalol, e'tiborsiz holda "Hech nima qilmaydi, borib sot-u, pulni olib kelaver", degandi va tamom qilgandi meni. Agar o'sha paytda, "Shoshmay tur, hozir sal xavfliroq", deganda, balki, bunday bo'lmasmidi? Ammo pul shirin-da, pul, pul desa o'zini tomdan tashlaydi Serjon deganlari. O'sha pul tezroq unga kelsa-yu, tezroq cho'ntagiga ursa - yagona niyati shu edi. Men, tashvishlarim, ish-kuchim bilan nima ishi bor...

Shu payt Serjon mashinaga o'tirdi. O'tirar-o'tir-mas: "Bir ish topdim, Arslon", deya jilmaydi. Men esa darhol shoshib so'radim: "Qayerda, qanday qilib, qanaqa ish?" deya. Bir savdo markazida poyabzal sotadigan bo'lim bor ekan. Boshlig'ining do'sti ekanini, unga telefon qilib aytib qo'yganini, ertaga o'zim haqidagi ma'lumotlar bilan oldiga borishimni aytdi. Furqon menga qarab: "Menga qara, ukam, mana, ish ham topildi. Bundan keyin shunday qilamiz: hadyalarni sotib berganing uchun oldin bir so'm berayotgan bo'lsak, endi uch so'm beramiz. Men ham, Serjon ham", dedi.

O'sha paytda Serjonning avzoyini bir ko'rsangiz edi. Yuzida zilzila vayronalaridek xunuklik bor edi. Go'yo "Uncha pul berolmayman", deyotgandek qarayotgandi. Shusiz ham unga muhtojlik joyim yo'q. Avval qilgan ishlarimizda haqqimni bermagan kishi haqqimdan ortig'ini bera olarmidi? Bersa ham, sadaqa sifatida qarardi unga. Bu gapi uchun Furqonga rahmat aytdim va: "Siz haqqi qancha bo'lsa o'shani bering - kifoya", deya mavzuga nuqta qo'ydim.

Ertangi kun uchun tayyorlanishim kerak edi. Ya'ni tarjimai holimni, qayerlarda ishlaganimni, oilam, o'zim haqimda yozma ma'lumotlarni tayyorlashim lozim edi. Uyda esa gaz, elektr yo'q. Ijara vaqti ham hali-zamon kelib qoladi. Ustiga-ustak boshqa xarajalar degandek. Opamning to'yi uchun olingan qarzlardan bir miqdor bor hali, uni to'lash kerak. Ukamning puli ham tugay deb qolgani shubhasiz. Eng yomoni, cho'ntagimdagi pul hech narsaga yetmas edi. Yetishmovchilik sindromiga mana shunday holda duchor bo'ladi inson...

Yigirma ikki yoshli yaproqlari to'kilgan bir daraxt edim. Ildizlarim suvsizlikdan qurir holga keldi...

Xullas, sheriklarim uyimga tashlab qo'di. Endi ertagacha kutish kerak, kutish... o'zim haqimda yozma ma'lumot tayyorlash uchun oshnamning do'koniga kirdim. Yozib bo'lgach, uyga chiqibuxladim.

Uyg'onib qarasam, Furqondan SMS kelibdi. "O'zing haqingdagi ma'lumotnomadan ko'proq nusxada olib kel, hamma yerga tarqatamiz", deb yozgan ekan. Darhol o'rnimdan turib, kiyindim. Uydan chiqib do'kon tomon yo'l oldim. O'zim haqimdagi ma'lumotnomadan o'n-yigirma nusxa chiqarib, ular aytgan manzilga



borishim kerak edi. Serjonga sim qoqib, do'stining telefon raqamini oldim va aytilgan savdo markaziga qarab jo'nadim. Borib ma'lumotnomani ularga tarqatdim. "Ishchi xodim olamiz", deb e'lon bergan muassasalarning barchasiga o'zim haqimda ma'lumotnoma tarqatib chiqdim. Onamga hech bildirdim aytmadim. Meni ishga ketdi, deb o'ylagandi.

Uyalganimdan u bilan o'tirib suhbat ham qilolmadim. Uyga chiqa solib, onamdan hol-ahvol ham so'ramay xonamga qamalib oldim. O'shancha ma'lumotnomadan qo'limdan faqat bir nusxasi qolgandi.

Uni ko'paytirib, boshqa tashkilotlarga ham berib chiqmoqchi bo'ldim. Borib undan yigirmata nusxa chiqardim-u, boshqa savdo markaziga qarab yo'l oldim. Oldingi joylardan xabar kelib qolishi kerak edi. Hatto nonushta ham qilganim yo'q, ochlikdan og'zim hidlangan bo'lsa ham ajab emas, ammo hech narsani o'ylamayotgandim o'sha paytda. Hatto suv ham ichmagandim. Yana qon bosimim tushib ketsa kerak. Lekin buni o'ylashga vaqtim yo'q edi...

Savdo markaziga borib, uning bo'limlariga ma'lumotnoma tarqata boshladim. Uch-to'rt soat ichida kamida qirq-ellikta do'konga ma'lumotnomamni berib chiqdim. Vaqt allaqachon peshin bo'lib qolgandi... Furqon aka qo'ng'iroq qildi. "Nima bo'ldi, ukam, ishlar qalay, tarqatdingmi hammasini? Qayerlarga berding? Ovqatlandingmi? Puling bormi o'zi?.."

Furqon aka mana shunday ustma-ust savollar berib mendan hol so'rab turganda Serjon nima qilayotgan ekan-a? Bir bor bo'lsin qo'ng'iroq ham qilmasdi. Ochig'i, Furqon akaning birodarlik mehri meni xursand qilayotgandi. Bir yelkadosh, ko'ngil so'rarga muhtoj bo'lib turgan paytimda u o'z qarindosh-

larimdan ham samimiy, ancha yaqin edi. Ulardan qirq-ellik marta yaxshi desam ham to'g'ri bo'ladi. Hatto meni yaxshi tanimasdi ham. Lekin dardimni o'z dardi deb bilayotgandi. Haqiqiy inson edi u. Bu safar xato qilmayotgandim odamlarga baho berishda.

Furqon aka Serjon bilan gaplashganini, poyabzal sotiladigan joydan meni olib ketishlarini aytdi. Buni eshitib xursand bo'ldim. O'zim xabar beraman, deya telefonni o'chirdim. Vaqt o'tib borar, men esa hamon ma'lumotnoma tarqatib yurardim. Borgan savdo markazimdagi barcha do'konlarga erinmay tarqatib chiqdim.

Hech bo'lmasa kechki ovqat masalasini hal qilishim kerakligini tushundim va tashqariga chiqdim. Metro bekatiga yaqin bir joyda har xil yeguliklar sotiladigan joy bor ekan. U yerdan perashka, bir do'kon-dan sharbat olib, qornimni to'yg'azdim. Pulim qolmagani bois metroga tushmay yayov yuga boshladim. Shu payt telefon jiringladi: yana Furqon aka. "Qayerdasan, borib olib kelaymi?" deb so'radi. "Mayli, kelavering, aka", dedim. Taxminan o'ttiz daqiqacha bir bank yonida kutib o'tirdim. Nihoyat, Furqon akaning mashinasi ko'rindi. Mashinaga chiqar-chiqmas undan sigaret so'radim. Sigaret uzatarkan, jilmayib qo'ydi va: "Sigareting yo'qmi, nimaga aytmading oldinroq", dedi. Men esa hozirgina tugaganini aytdim. Ammo hamma-siga tushungan edi.

Meni uyga tashlab qo'yadigan bo'ldi. Biroz ko'ngil yozish uchun u yoq-bu yoqdan suhbat qurgan bo'ldik. Benzin olish uchun yoqilg'i quyish shaxobchasida to'xtab: "Men bir hojatxonaga borib kelay", dedi. Kelgan paytida qarasam, qo'lida naq besh quti sigaret. Menga uzatdi. To'g'risi, bunaqa marhamatlar in-

soni  
di.  
qilm  
inso  
og'i  
ni  
juda  
Ars  
bila  
qol  
so'r  
sidi  
Xav  
Ral  
me  
yo  
uk  
sal  
  
tib  
ni  
Ke  
lit  
ba  
qi  
ho  
va  
jo  
ta  
cl  
g  
  
n  
u

songa ba'zida og'ir botadi. Menda ham shunday bo'ldi. "Boshimga ne kunlar tushdi", deya noshukrlik-ku qilmayman, ammo menga ko'p yordami tegayotgan insonning sigaretimni ham olib berishi vijdonimga og'ir botayotgandi. "Nimaga oldingiz bularni, aka, meni xijolat qilyapsiz", deb g'o'ldiradim. Ammo menga juda asosli va akalarcha javob berdi: "Menga qara, Arslon, ehtiyoj zaiflik sanalmaydi. Ehtiyoj - o'z nomi bilan ehtiyoj, xolos", deganda nima deyishni bilmay qoldim. Ma'lumotnomani qaerlarga tarqatganimni so'radi. Men barini gapirib berdim. "Albatta, qaysi-sidandir xabar keladi. Juda ko'p joyga tarqatibsan. Xavotir olma", dedi. Keyin esa meni uyga tashladi. Rahmat aytib xayr-xo'sh qildim. Uning bu odamiyligi menga shunchalar yaxshi ta'sir qilayotgandiki, aslo yonimdan ketmasa, deb o'ylayotgandim. Doim aka-uka birgalikda otamlashsak, u-yoq bu yoqni aylansak, derdim. Ammo hayot bunchalar go'zal emas-da.

Uyga kelsam, onam ko'zlari to'rt bo'lib meni kutib o'tirgandi. Erta sahardan chiqib ketganim uchun, nimadir bo'lmadimikan ishqilib, deya xavotir olibdi. Kecha kechqurun ham kela solib, xonamga qamali olganim ko'ngliga g'ulg'ula solibdi. O'tirib suhbatlashdim u bilan. Ishim yaxshi ketayotganini, yaqinda hammasi iziga tushib ketishini, xavotir olishga hojat yo'qligini, hatto bir-ikki kunda uyimizga elektr va gaz ham kelishini aytib, ko'nglini ko'tardim. Onajonimga shunchalar ustalik bilan yolg'onlar to'qib tashlayotgandimki... Ammo nima qilay, ularning barchasi uzrli edi. Majburlikdan, yaxshi niyatda aytilgandi.

Nafsimning tishlarini qoqib olgandim. Endi uning menga tishi o'tmasdi. Faqatgina onam, opam va ukam uchun yashayotgandim. Haqiqatdan uzoq bo'htonlar

emas, haqiqatga yaqin yolg'onlar to'qiyotgandim bor-yo'g'i. Ammo bularning barchasini onamni o'ylab qilayotgandim...

Onamning ko'zlari va gapirishidan charchaganini bilinib turardi. "Nimaga horg'insiz?" deb so'radim. "Uy- ni to'liq tozalab chiqdim, shundandir-da", dedi. O'sha paytda qayerdan ham bilaman boshqa bir joyda far- rosh bo'lib ishlayotganini. O'g'lim xafa bo'lmasin deb, buni mendan yashirib yurgandi. Chunki boshimdan o'tayotganlarning zalvarini u juda yaxshi his qilib turardi. Ochig'i, shu paytgacha bunday mushkulot- larga duch kelmagandim. Aslida, kuchli, irodali, g'ay- ratli bola edim-u, hozir sinib qolgan majruh qo'ldan farqim yo'q edi. Jarohatlarimdan qon sizib turardi. Ko'z yoshlarim kechasi misoli shaloladek oqib, tinch- lik bermasdi.


Onamga xayrli tun tilab, deb xonamga kirdim. Oxirgi kunlarda vaqt ancha barvaqt bo'lsa ham xo- namga biqinib oladigan odat chiqargandim. Xonam- da shamdan boshqa biror shu'la yo'q edi. Faqatgina sovuq suv kelib turibdi. Ammo u ham hali zamon o'chib qoladi. Ertaga katta ehtimol bilan poyabzal do'koni- dan xabar keladi. Shuning uchun hozirdanoq hayajon- ga tushyapman.

Ertaga xuddi ishga ketayotgandek uydan chiqa- man. Cho'ntagimda esa bor-yo'g'i borib-kelishga yeta- digan pul bor. Qayerga borsam, u yerdan yayov qayt- maslikkagina imkonim bor, xolos. Na ovqatlanishga, na ichimlik ichishga mablag'im bor... Doimgi duomni qildim va o'rnimga cho'zildim. Toshdek qotib uxlab- man o'ziam. Tong otgach xuddi ishga ketayotgan- dek uydan chiqdim, uzoq vaqt yurgandan so'ng bir xiyobonga kirib kuta boshladim. Kimgadir qo'ng'iroq

qilishim kerak edi. Nahotki, faqat mikroavtobus yuvishdan boshqasiga yaramasam. Ha, boshqa joyga kirishni uddalolmaganimdan keyin u yerga borishga majbur bo'lamanda. Ammo shunga ham shukr qilaman. Hozircha xabar kelmasa-da, mikroavtobuslarni yaltiratib yuvib turaveraman. Har nada, har na. Hali ancha barvaqt edi, shuning uchun birozdan keyin borishga qaror qildim. Oldingi ishxonamda ishlaydigan bir hamkasbimga qo'ng'iroq qilib, imzolayotganda o'qimaganim o'sha ariza haqida so'radim. Oxirgi oydagi maoshim-ni berishadimi-yo'qmi, shuni bilmoqchi edim. Ammo hamkasbimning javobi ichimdagi kichkinagina umid uchqunini ham so'ndirdi-qo'ydi. Arizada shunday deb yozilgan ekan: "Oladiganlarini olib bo'lgan". Arizani o'qimay turib imzo qo'yganim uchun o'zimni koyiy boshladim...

Kattakon firma mendek bir faqirning maoshiga qarab qolgan ekan, qiladigan ish qolmagandi. Aslida-ku hech qanaqasiga: "Maoshimni saqlab qolsam bo'lardi. Qo'limdan kelgancha harakat qilmadim", deyolmasdim. Chunki bor imkonimni ishga solib bo'lgandim. Kuchim shunchasiga yetdi, xolos. Xullas, maoshimdan kechib qo'ya qolsam ham bo'ladi. Men bitdim, tamom bo'ldim. Hayot sabrimni sinayotganmidi, yoki men uchun hammasi tugaganmidi, bunisini bilmasdim.

*Dard-u g'amlar olovida qovrilgan  
inson o'zgaradi, pishadi,  
vujudi oltinu zanglardan forig' bo'ladi,  
Eng muhimi esa, qiyinchiliklarga  
qarshi tik turishni o'rganadi.*



Inson og'ir damlarda turfa xayollarga boradi. Dardlarini ichiga yutadi, ko'zyoshlari oqimini yuragiga buradi. Ko'krak qafasidan esa bu anduhlarni boshqa kishi chiqara olmaydi. Shuning uchun o'zingga faqat o'zing yordam bera olasan. O'zga chorang qolmaydi. Boshqacha aytganda, shifokor ham, bemor ham o'zing bo'lasan... Muammolar seni og'ir ahvolga soladi, tinmasdan aziyat yetkazadi. Hayot degan bu kurash maydonida qochishga joy topolmay qolasan. Yerga tushsang, yengilasan, taslim bo'ldim deb yerni ursang, tamom bo'lganing shu.

Xuddi shunday, mening ham na yiqilishga, na taslim bo'lishga haqqim bor edi. Oilamning taqdiri yelkamda edi. Nima bo'lganda ham oyoqda qolishga majbur edim. Har zamon umidsizlikka tushsam, hafsalam pir bo'lsa, ko'z oldimga onam, ukam va opam kelardi. Mana shu narsa meni hayotning past-u balandlari qarshisida oyoqda ushlab turibdi...

Menga bir shu'la, bir yo'l lozim edi...

"Hayot qo'liga xipchin tutgan bir ustozdir", degan hikmatli so'z bor. Meni ham mana shu qattiqqo'l muallim o'qitayotgandi. Ammo uning darslarini hali yarmigacha ham o'rganmagandim...

Daqiqalar soatdek, soatlar kundek kechayotgandi... Hamma narsa juda-juda og'ir edi. Axir inson quyosh chiqmasligini xohlashi mumkinmi? Ha-yot to'xtab qolishini istashi mumkinmi?

Alloh kechrsin-u, nimalarni istamadim deysiz... Haqiqatan ham, aytay desam so'zlar yetmaydigan hasratlarim bor...

O'rnimga o'zingizni qo'yib ko'ring. Shunday holga tushsangiz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz - fikr

qiling... Hayot meni yer bilan bir etib, qo'l-oyoqlarimni sindirib, qulog'imni kar, tilimni soqov qilib qo'ygandi...

Nihoyat, uzoq kutilgan onlar keldi: telefon jiringladi. Kutganimdek, qo'ng'iroq qilgan Serjon aka-ning poyabzalchi do'sti edi. "Qalaysan, og'ayni, yaxshimisan?" degan horg'in ovoz keldi telefondan. Gaplashgan sari men haqimda obdan surishtirganlarini, qayerlarda qanday ishlaganimni chuqur o'rganib chiqqanlarini sezdim. Afsuski, oldingi ish joyimga ham qo'ng'iroq qilganini, "U bola o'g'ri", degan javob bo'lgach, meni ishga olish fikridan qaytganini aytdi. "Xafa bo'lmaysan endi, og'ayni", degan bo'ldi ko'ngil uchun. Ammo eng botib ketgani - menga nisbatan o'g'ri lafzining ishlatilishi edi. Bunday olganda bu men uchun yer bilan bitta bo'lish bilan barobar edi. Hammasiga Serjon aybdor deb o'yladim o'sha voqeadan keyin. Aslida, o'sha mudhish tuhmat toshlari otilgan paytlarni ko'pam eslolmayman, eslashni ham istamayman. Aytilgan gaplar, ayblovlar, tahqirlar-ku, yodimda, ammo ular meni shunchalar toliqtirdiki, do'stim, senga aytib beray desam tilim kuyadi. Tilim kuyganda eslashga tirishaman, bunday qilgan paytim esa bo'g'ilib ketaman... g'am daryosida suzaman, suzaman, biroq nafasim qaytaveradi.

Bo'shatilgan ishxonamdan boshqa yerda ishlama-  
gan edim. Shuning uchun tarjimai holimda faqat  
o'sha joy yozilgandi. Ishning o'xshamaganidan ko'ra,  
boshqa tashkilotlar ham meni aynan eski ishxonam-  
dan surishtirishi va hammasi bir xil - "U o'g'ri bola",  
degan javobni eshitishi alam qilardi odamga.

Xullas, buni o'ylasam, osmon ustimga qulab tu-



shadigandek bo'lardi. Heh, qanaqa osmon? Osmonu yer bormidi o'zi men uchun?

Inson og'ir damlarni ko'pincha eslashni istamaydi. Balki, bu satrlarni o'qiyotganlar uchun gapirib berayotganlarim dard-u alam sanalmas. Ammo har kimning g'ami o'ziga mos va g'am chekmagan odam buni tushuna olmaydi. Ha, yana bir narsa bor, tabiiyki: inson kimdandir mingta yaxshilik ko'rsa-yu, ortidan bittagina yomonlik sodir bo'lsa, ana shu yomonlikni ko'proq eslab yuradi. Naq mingta ezgu ishga ham birgina qabohat nuqta qo'yadi.

Shunday deyman-u, aslida, bu ham bir sinov. Sinovlar esa insonning o'ziga kim ekanini ko'rsatib qo'yadi. Eng muhimi, uni hayot qozonida pishiradi, hayotning past-u balandini o'rgatadi, biroq qalbda ochgan yarasidan iz ham qoladi... Va mana shu iz unga o'tgan kunlarini, xatolar qaerdan kelganini doim eslatib turadi...

Ana shunaqa, do'stlar. Ish topolmadim, to'g'rirog'i ishga olmadilar. Yuzimga balchiq bulashtirilgan edi. Ana o'sha kasofat balchiqning izi qolgandi. Juda ham jirkanch, la'nati bir dog' edi bu. Shunchalar qiyin ahvolda bo'lsam ham dardlarga parvo qilmayman, derdim-u, ammo bunday so'zlasam aldagan bo'laman sizni. Aslida, mutlaqo aksi: o'g'ri degan dog' yuragimni parmalayotgandi, yelkamni ezayotgandi, bo'g'zimga tugun bo'lib tiqilib turardi. Qisqasi, bu malomat toshi boshimni yorgandi, uyaltirayotgandi...

Hamma narsa esimdan chidi ketdi. Bu yog'iga nima qilishni bilmay qolgandim. Shunday holda o'ychan o'tirganimda Furqon aka qo'ng'iroq qilib qoldi. "Ish masalasi nima bo'ldi, Arslon", deb so'radi.

So'ramaganda yaxshi edi. Tilim yechilib ketdi shu asnoda. Serjonni malomat qila ketdim. U haqida ayt-magan gapim qolmadi. Buni eshitgan Furqon aka: "Tinchlan, qayerdasan o'zi, ish bor, borib shunga yeng shimaraylik. Yaxshi daromad qilish mumkin. Xullas, bu safar yaxshi xabarlar", dedi. Men esa unga darhol tur-gan manzilimni aytib, uni kuta boshla-dim. Kutayotgan paytib, bekor o'tirmay va o'z fikrla-rim bilan o'rtoqlasha qolay...

Nima bo'lganda ham umidni uzmaslik-hayotning bir parchasi. Eng qorong'i, zulmat bosgan tunda bo'lsa ham, umid yulduzlari miltillab turmasa quyosh chiqmaydi. Eng muhimi, umidni kerakli joyga bog'lash lozim. Umidim doim Rabbimdan edi. Har qanday holatda, har qanday vaqtda faqat duo qildim. To'g'ri, tushkunlikka tushgan paytlarim, haligidaqa dunyo ko'zimga qorong'i ko'ringan onlar ko'p bo'ldi. Ammo baribir umidim ipi mutlaq uzilib qolgani yo'q.

Bunday damlarda o'zimga derdimki: "Rabbing sen bilan". To'g'ri deb o'ylagan, halol pul topishga in-tilganim haligi ishda hamma ayb mening bo'ynimga qolib ketdi. Tuhmat qilishdi. Birovlarning bola-cha-qasini o'ylab, o'zimni qurbon qildim. Ammo Rabbim doim men bilan edi va U hamma narsani ko'rib-bilib turardi. Shuning uchun qo'rqmayotgan edim. Menga "o'g'ri" degan tamg'ani yopishtirdilar. Juda ham uya-layotgandim. Lekin men bunday qilmagandim. Alloh hammasini ko'rib turibdi va bir kuni adolatini tajal-liy ettirishi aniq. Xullas, boshimizga tushgan ko'rgi-liklar qanchalar og'ir bo'lmasin, "Nima gunoh qilgan-dim axir?!" deya isyon etmasdan, "Buning ham bir hikmati bordir-da", deya sabr qilish lozim ekan.

Mening ham ko'kragimga shamol tegib qolar deb umid qilayotgandim-u, ammo bundan-da battari bo'lmasa kerak deb o'ylab, qolardim ba'zida. Shunday bo'lsa-da, aslo taqdirimdan nolimadim, hammsini sabot bilan yengib o'tishga intildim. Ha, dorulamon kunlar bir kun eshik qoqishiga ishonardim. Biroq, bundan ham og'iriga duchor etma, deb duo qilardim, mudom. Chunki agar shunday bo'lsa, ko'tarolmasligim mumkin edi. Buni sezib turardim. "Har yaxshilikda bir yomonlik, har yomonlikda bir yaxshilik bor", deya hamma narsaning eng to'g'risini biluvchi Rabbimga duolar qilardim. Har doim qo'limni ko'kka ko'targanimda Mavloni (Jaloliddin Rumi)ning quyidagi so'zlari yodimga tushardi: "Isyonlardaman, dedi. Yo'q, imtihonlarda edi. Buni bilganda bormi, hammasidan qutulgan bo'lardi".

Men anglab yetgan edim: albatta, hamma g'amlardan kun kelib qutulaman. Rabbim guvoh, Mavloni-ning yuqoridagi purma'no so'zlari bir on bo'lsin xayolimdan chiqqani yo'q...

Eng muhimi, to'rt mucham sog'. Axir bundan ham yomoni, ya'ni muammolarga yechim topish imkoniyatidan ham mahrum bo'lishim, nogironlar aravachasiga mixlanib qolgan tirik murda holiga tushishim mumkin edi-ku, deyman o'zimga-o'zim.

Onam ko'p yig'lardi, ko'pincha xafa bo'lib yurardi-yu, sog'ligi joyida edi. Allohga hamdlar bo'lsinki, sog'-salomat edik...

Nihoyat, Furqon aka keldi. Mashinaga chiqdim. Qarasam, orqa o'rindiqlarda bir dunyo sovg'a bor. Ularni ko'rib ko'zim katta-katta bo'lib ketdi. U bilan quchoqlashib ko'rishgandan so'ng: "Tezroq do'kondorga

telefon qil, bularni pullaymiz", dedi. Aytganini qildim. Bu safar sotiladigan mollarning cho'g'i ancha ko'p edi.

Yo'lga tushdik va Furqon aka gap boshladi: "Hammasi yaxshi bo'ladi, muammolaringni hal qilamiz, ko'p pul topasan, qo'rqma, ukam, yoningda o'zim bor-man. Serjondan ham xafa bo'lma. U, shunchaki biroz tepsa-tebranmasroq yigit. Ammo o'zi seni yaxshi ko'radi", dedi. Xullas, tag'in ish mavzusi ochildi. Bu ishga yana bosh qo'shishga majbur bo'layotganidan afsusda ekanini, ammo men uchun shunday qilayotganini aytdi. Endi katta ehtimol bilan savdo markazlari ishga olmasligini, yagona chora hadyalarda ekanini ham qistirib o'tdi. Men ham shunday fikrda edim. Mabodo, biror joyga amallab ishga kirsam ham, yana o'g'ri degan so'zni eshitsam, chidab turolmasdim. Gaplarini maqullab, bu o'ylarimni unga aytdim. "To'ppato'g'ri", dedi. O'sha paytda ko'zimga yosh aylanib turgandi. Ozgina ortiqcha gap bo'lsa, yig'lab yuborishim aniq edi. O'zimni zo'rg'a tutib turgandim.

Shuning uchun suhbat mavzusini boshqa yoqqa burdim. "Hadyalarni tezroq sotib, mo'maygina daromad qilaylik bo'lmasa, Arslonbey!" deya kulib qo'ydi. Do'kon egasiga sovg'alarni sotib, pulni olib qaytib chiqdim va Furqon akaga uzatdim. Ammo u: "Og'ayni, istaganingcha ol-da, keyin ber", dedi. Xullas, taqsimlash ishini yana o'z ixtiyoriga tashladi. Ammo bunday qilolmasdim. Chukni halol topganimdan boshqasini ololmasdim. Hatto egasi rozi bo'lsa-da.

Bor-yo'g'i bir vositachi edim, xolos. Mana shu vositachilikning kasofati bilan ishimdan ayrilgandim, nomimga dog' tushgandi. Furqon aka bu safar pulni

teng bo'ldi. Ya'ni bir maosh miqdoricha ulush bergandi menga. "Bu sening haqing, jigarim", dedi. Bu gapni eshitib darhol: "Aka, bu ko'p-ku axir?" dedim. Menga biroz hayajon bilan, balandroq ovozdada: "Axir bizni deb ishingdan ayrilding, qanaqasiga ko'p bo'lsin, jinni qilma meni! Ol va cho'ntagingga sol, qanaqa ehtiyojning bo'lsa o'ylamay ishlataver. Agar Serjon ham birga ishlaymiz deb kelsa, tortinmay o'z ulushingni aytaver. So'ragan pulingni bermasa, "Hamkorligimiz tugadi bo'lmasa", degin. Bu mendan senga akalik maslahati, tushundingmi?" dedi. Avval nima uchun bunday deganini tushunmadim. Ammo keyinroq miyamga urib qoldi. Agar men uning mollarini do'kon egasiga olib borib sotib bermasam, Serjon uni hech qachon sotolmasdi.

Bunga jasorati yetmasdi. Biror vositachi topib, o'zini panaga olmay turib zinhor bu ishga qo'l urmasdi u. Furqon aka bergan pul bilan gaz va suvni hal qilib, bir oylik ijara haqini to'lab, ukamga ham bir oz mablag' yuborishim mumkin edi. Shunday bo'lsa-da, ish topishim shart.

Negaki hali elektr masalasi ko'ndalang turibdi. Unga ham anchagina pul kerak edi. Qisqasi, "Arslon qachon kelarkin?", deya to'rt xil to'lov meni kutayotgandi. Ustiga-ustak opamni to'yi uchun olgan qarzlirimiz ham bor edi hali. Sezib turganingizdek, kaminaga yanada ko'proq pul zarur edi. Biroq baxtga qarshi ishsizlar safida edim.

Furqon aka meni bozorda qoldirdi. U yerdan to'g'ri to'lovlarni to'lash yo'lini tutdim. Gaz pulini to'ladim va suvning ham yana biroz oqib turishini ta'minlaydigan mablag'ni hisobimizga o'tkazdim. Ijara haqini berish uchun uy egasiga sim qoqdim, kutgani uchun

rahmat aytdim va bir oyligini o'tkazib berdim. Keyin esa ukamga qo'ng'iroq qilib unga ham pul yubordim. Xullas, qo'limda yana hech vaqo qolmadi. Pul o'lgur-ning nomi bor edi-yu, o'zi yo'q edi go'yo. Mayli, o'zi bo'lmasa ham. Uning dunyo hoy-havaslaridan boshqa nimaga yaraganini ko'rgansiz?

Soat millari kechga tomon ilgarilay boshlaganda xayolimga tog'am keldi. Tog'am juda ham badavlat bo'lmasa-da, ishlayotgan tashkilotiga xodim qidirib yurgandi. Aslida, maoshi unchalik ham ko'p emasdi-yu, shunday bo'lsa-da bir omadimni sinab ko'ray deya uning yoniga borishga qaror qildim. Turli xil qozonlarni ta'mirlardi ular. Umuman olganda, uyma-uy yurib odamlarning qozonlarini butlab berishardi. Tog'am bilan gaplashgan edim, xo'p dedi. Ikki-uch kunda ishga tushadigan bo'ldim. Ammo u yerdan topadigan pulim faqatgina ijara haqini to'lashga yetardi, xolos. Boshqa ilojim yo'q. Negaki biror nima bilan shug'ullanishim kerak edi-da baribir. Men esa yo'qdan ko'ra... deya qozon ta'mirlovchi bo'lishga qaror bergandim. To'g'ri, ish og'ir, puli ko'ngildagidek emas. Biroq boshqa joylarda ish tajribasi, o'zim haqimda ma'lumotnoma so'rashardi-da. U yog'i nima bo'lishi esa o'zingizga ma'lum. Xullas, kamina endi usta edi...

Liftdan chiqquncha sabrim yetmadi, chunki negadir onamni juda sog'ingandim. Tezroq uni bag'rimga bosgim kelayotgandi. Nihoyat, uyga kirib, u bilan ko'rishib, bag'rimga bosdim. "Gaz va suvni hal qildim, ijara haqini to'ladim, ukamga ham pul yubordim", degan edim, onam ko'z yoshlarini tiya olmadi. "Unday bo'lsa, maoshing shu bilan tugab qolgandir-da", dedi. Ha, rostdan ham qo'limda hech vaqo qolmagandi. As-

lida, bilib turganingizdek, oladigan maoshim yo'q edi. Buni onam bilmasdi. Bilmagani ham yaxshi...

Tog'am bilan bafurja gaplashib, vaziyatimni tushuntirdim. Boshimga tushgan ko'rgiliklarni, onam hech narsadan xabar topmasligi kerakligini aytdim. Tog'am ishonchli, og'zi mahkam odam edi.

Iltimosimni qabul qildi va: "Kelishdik, jiyan", dedi. Xullas, onam qozon tuzatuvchi bo'lib ishlayotganimni ham bilmaydi endi. Aslida, bunga hojat yo'q ediku-ya, lekin o'sha paytdagi ruhiy holatim ta'sirida, hamma narsadan qandaydir xavf kutadigan bo'lib qolgandim. Shuning uchun o'zimcha tadbir qilayotgandim. Yagona maqsadim - onamni xursand qilish, uni tashvishlantiradigan narsalarni esa bildirmaslik.

Avvaliga, xursandchilik bilan bo'lib e'tibor bermabman, keyin bunday qaragam, pech uyni issiqqina qilgan, televizor esa sayrab yotibdi. Hayron qoldim. Elektrni onam to'laganmikan, deb o'yladim. Hayajon bilan bu haqida so'radim. Rostdan ham uning ishi ekan. Ammo qo'shnining balkonidan, ya'ni pastdan qo'rqmasdan sim tortib chiqibdi. Bino tashqarisidan ko'rmabman buni. Onam pastdagi qo'shnimizdan uyni isitish uchun ruxsat olibdi. Yashasin qo'shnilarimiz, deb qo'ydim. Mana shunday yaxshi insonlar bilan yonma-yon yashashni Alloh hammaga nasib qilsin. Biz uchun qo'llaridan kelgan yordamni ayamayaptilar.

Gazdan qolgan qarzimizdan qutulgandig-u, ammo undan hali ham foydalana olmasdik. Elektr pechka undan ancha yaxshiroq edi. Chunki gazni ishga tushirish uchun yana bir dunyo pul kerak. Eng quvonarlisi, bu yog'iga uyimizda issiq suv bor. Onam bilan suhbatni tugatgach, shamni ko'tarib hammomga

yugurdim. Yuvinmaganimga naq ikki hafta bo'lganda. O'sha paytda oddiygina issiq suvning ham qanchalar buyuk ne'mat ekanini tushunib yetdim. Hammasi uchun Allohga hamdlar aytdim. Hammomdan naq yarim soat chiqmabman deng. Onam hammom eshigini taqillatib: "O'g'lim, yaxshimisan ishqilib, nimamuncha ko'p qolib ketding", deb qoldi.

Yengilgina bo'ldim. Qo'l-oyoqlarim kirchirlardan qutulgani uchun ixchamlashib qolgandek edi. Shunday maza bo'larkanki yuvinish, ta'rifiga tilim ojiz...

Inson o'ziga berilgan ne'matlar qadrini dastlab ulardan mahrum bo'lib, keyin qaytadan erishganda anglaydi. Aslida, mahrum bo'lganda ham boshi devorga taq etib tegadi. Biroq o'sha narsaga qaytadan erishsa, uning qadri yanada ortib ketadi. Ustiga-ustak bu birlamchi ehtiyojlardan bo'lsa, har on, har soniya Rabbingga shukr qilishni xohlab qolarkansan kishi.

Avvallari hammomda yuvinishga, uyda oqib turgan beminnat suvga, issiqqina uyga, yorug'likka, chiroqqa, issiq suvga, yonib turgan gaz alangasiga, qaynoqqina choyga hecham shukr qilmas edim.

Boshimga tushgan qiyinchiliklardan so'ng jamiki ne'matlarga to'xtamay shukr qila boshladim. Ularning hammasi bizga Yaratganning armug'oni edi. Uy issiqqina, rohatbaxsh edi. Onam ertalabdan beri elektr pechkani hamma xonalarga qo'shib chiqib, butun uyimizni isitib qo'ygandi. Hammomdan yengil bo'lib chiqqanim bois toshdek qotib uxlashim aniq.

Onam bilan biroz gaplashgandan so'ng yotog'imga o'tdim. Barvaqtroq yotib, tong saharda ishga ketishim kerak edi. Savdo markazida tozalik kuni bugun deya sport formalarimni tayyorlab qo'ydim. Ammo,



o'zingizga ma'lumki, qozon ta'mirlashga ketishim kerak edi. Xullas, yana onamga o'sha "bezarar va silliq" yolg'onlarni qatorlashtirib tashlashga majbur bo'ldim.

Bilasizmi, men-ku unga har xil bahonalar qilib yuribman, lekin unda ham qandaydir horg'inlikni sezgandim. Bir nimalarni tushungandek edim-u, lekin tom ma'noda nima ekanini bilolmayotgandim. Aslida, bir taxminim bor edi: bormayotgandir har holda, deya umid qilayotgandim. Ammo, afsuski, o'sha farroshligiga borayotgan ekan...

Ertaga men uchun yangi bir kun, yangi bir faoliyat boshlanadi. Ustiga-ustak bu yangi bir hayot ham degani. Qisqasi, tartibga solib olish lozim bo'lgan bir dunyo masala bor edi. Ba'zan hayot seni o'tirgan joyingdan oladi-yu, boshqa bir yerga tashlaydi va deydiki: "Mana shu joydan davom et!" Bu gapiga g'ing deb ko'r-chi. Indamaygina aytgan joyidan davom etishga majbur bo'lasan.

Men ham aynan o'shanday nuqtada edim. Ya'ni bir qarashda yo'lning oxiridek ko'rinayotgan, ammo hamma narsa yangidan boshlanadigan nuqtada...

Kechalar juda og'ir kechadi. Inson o'rnidan tura-di va o'z-o'zi bilan suhbat qura boshlaydi. Balki, kechalar kunduzlardan ham uzoq tuyiladi g'amli paytlarda. Kishining o'zi bilan gaplashayotganda eng ko'p qilgan xatosi faqatgina yomon kunlarini esga olishidir. Baxtli onlar, yaxshi damlar ham bor-ku. Baxtga qarshi, bular ha deganda hofizamizga kelavermaydi. Axir yomon xayollar shuuringni qoplab olgandan keyin vaqt o'tadimi hech zamon? Masalan, men uchun soat millari shilliq qurtga o'xshab sudralayotgandek tuyulardi. Shuning uchun kechalar menga yoqmasdi: ular nihoyatda uzun edi.

Qisqasi, o'zimiz bilan gaplasha-gaplasha, yomon kunlarni eslay-eslay, miyamizni achita-achita dorulomon kunlarni o'ylolmaydigan bir holga tushganimizni sezmaymiz ham. Ha, do'stlarim, aslida, yomon insonlar emasmiz, biroq og'ir kunlarda yaxshi onlarnimizni eslashda ancha qiynalamiz.

*Baxtsizlikning baxtdan oladigani bor edi,  
hammasini oldi...*

*G'ayratiga ba'zan qoyil qolaman:  
niyatiga yetish uchun bor  
imkonini ishga soldi.*





*Bu dunyoda dard-u  
g'amdan aslo qocholmaysan, do'stim.  
Bilginki, uning hayotdan oladiganlari bor.  
Buni sendan ham bemalol olishi  
mumkin, mendan ham...*

gar  
ke  
ha  
qa  
rel  
qc  
ta  
ke  
ol  
Fi  
al  
"  
"  
fi  
t  
h  
e  
l

Kiymlarimni olib, go'yo oldingi ishimga ketayotgandek uydan chiqdim. Tog'amning oldiga borishim kerak edi. Bu orada do'konga o'tib kulcha va ayron ham olish lozim. Sotuvchi do'stim telefonini qachon qaytarishimni so'radi. Bunday o'ylab ko'rsam, uning telefonidan foydalanib yurganimga ham ancha bo'lib qolibdi. Tezroq yangisini olib, omonatni egasiga qaytarishim kerak edi. "Yana bir-ikki kun ishlatay, o'rtoq, keyin qaytaraman", deya undan kulchanon va ayron olib, mikroavtobus bekatigacha yayov bordim. Yo'lda Furqon akaga qo'ng'iroq qildim. "Menga telefon kerak, aka", dedim. U yaqindagina yangi telefon olgan-di. "Eskisini ishlatib tursam bo'ladimi?" deb so'radim. "Bir telefon sendan aylansin, sovg'a qildim, bemalol foydalanaver", dedi u. Eski dedim-u, ammo ajoyib telefon edi. Men sotgan markadan... Telefon masalasi ham hal bo'lganidan juda xursand bo'ldim. Keyin esa undan bir oz qarz berib turishini ham so'radim. Furqon aka kechki payt yonimga o'tib, so'rganlarimni tashlab ketishini aytdi.

Mikroavtobusda ketib borarkanman, shu paytgacha hecham o'zimga vaqt ajratmaganimni, hatto qiz do'stim ham yo'qligini angladim. Aslida, juda ko'rim-siz ham emasdim, o'zimni maqtash bo'lmasin-u, vujudimdan kuch-g'ayrat yog'ilib turardi. Shunday bo'lsa-da, oxirgi paytlar boshim tashvishdan chiqmay qolgandi. Shuning uchun romantik narsalar esimga ham tushmayotgandi.

Axir bunga na vaqtim, na pulim bor. Qizlar bilan sayr-u sayohat mana shu ikkalasisiz bo'lmaydi-da. Tog'am bilan uchrashib, qozon ta'mirlash uchun aytilgan manzil sari yo'l soldik. Qozon ta'mirlash degan ishni birinchi marta qilishim edi. Hatto bu ro'zg'or

anjomining nima ekani haqida ham tushuncham yo'q. Yo'lning tanobini tortgan holda suhbatlashib bordik va yer ostidagi ikkinchi qavatga tushdik. Qarasam, kat-takon bir temir buyum turibdi. "Mana shuni qozon deydinglar, jiyanim", dedi tog'am va libosini almashtira boshladi. Uning ish kiyimini ko'rib, yangi kasbim ha-qida ilk tasavvur paydo bo'ldi menda. Negaki mazkur usti-boshi ancha urinib qolgan, qop-qora kir bo'lib ketgan, ba'zi joylari yirtilgan edi. Qanchalar og'ir ish ekani bilinib turardi.

Shunday o'ylar bilan men ham ustimni almashtir-dim. Qozonlarning mana shunday qism-qism, og'ir temirlardan yasalishini ko'pchilik bilsa kerak. Qozon deya qidiruv berib, ularning rasmini internetdan ko'rsak, yap-yangi, bir-biridan chiroylilari chiqib ke-ladi. Ammo biz borgan joyda barchasi eski-tuski edi. Tog'am uni ta'mirlashini, mening vazifam qozon ichiga tushib maxsus devor urish ekanini aytdi. Ya'ni bu ulkan qozonning ichiga inson bemalol sig'ardi.

O'tirgan holda unga maxsus devor urishim kerak edi. Tog'am g'ishtlarni uzatdi va sementdan maxsus qorishma tayyorladi. Tashqaridan qorishmani olib, ichkariga ikki bukilib kirib, ustma-ust qilib g'isht tera boshladim. Biroz vaqt o'tgach, hamma joyim rasvo bo'lib ketdi. Haqiqatan ham juda qiyin ish ekan. Bun-day yumushlarga unchalik tobim yo'q edi. Qo'lim ko'pam qovushavermasdi.

Ustiga-ustak malakam ham haminqadar. Tog'am noshudligim joniga tegib jahl qilmayotgandi-yu, ne-gadir ishlashimni ko'rib kulaverardi. Bu esa mening achchig'imni chiqara boshladi. Bu qiziqqonlikni me-ning yoshligimga yo'yish kerak, aslida. Aynan mazkur asabiylik ham xalaqit berayotgandi menga.

Haligi qorishma qo'limni, yuzimni, qo'yinki hamma yerimni rasvo qildi. Xullas, bu ish men uchun emas ekan. Qo'limdan kelmayotgandi. Kuchim yetmayotgani uchun bunday demayapman, shunchaki eplolmayotgandim. Og'ir ish edimi, deysizmi? Ha, juda og'ir ish edi. Bundan ham battari, uni qilish uchun qobiliyat yo'q edi menda. G'irt noshud edim.

Bittagina shu qozonning ta'miri kechgacha davom etdi. Dastlab qisimlarni ajratasan. Keyin esa qaytadan yig'asan. Bu ajratib-yig'ish paytida, hali tajribasizligim bois faqatgina tog'amga kerakli narsalarni olib berib turishga yaradim, xolos. Qozonning oxirgi qismi esa hech o'rniga joylashmaydi deng. Tog'am uni qanday joylashtirish haqida bosh qotirayotgandi. Men esa uning tepasida qaqqayib turardim. Qozondan sal uzoqlashib qarasam, haligi joylashmayotgan qism boshqa joyniki ekan. Shuning uchun uning o'rnini almashtirish lozim edi. Tog'am bir soatdan beri uni joylashtirishga urinayotgan bo'lsa-da, buni ko'rmagan edi. Darhol unga fikrimni aytdim. Gapimning to'g'riligini ko'rib hayron qoldi. Chunki naq yigirma yildan beri shu ish bilan shug'ullansa-da, bu narsa xayoliga kelmagandi. Tog'am menga yuzlanib: "Arslon, miyang yaxshi ishlaydi. Qo'ling esa mutlaqo aksi. Shuning uchun aql ishlatishni talab qiladigan kasbning boshini tutishing kerak", dedi va kulib qo'ydi.

Qismlarning joyini almashtirdik va qarabsizki, ishimiz bitdi-qoldi. Tog'am meni uyga tashlab qo'yadigan bo'ldi. Chunki charchoqdan adoyi tamom bo'lgandim. Yurarga ham holim yo'q edi. Og'ir bo'lsa-da, amallab qadam tashlashim kerak edi. Tog'am bilan xayrlashib, uyga chiqib borarkanman, ammaning

o'g'li Yavuz sim qoqdi. U deyarli men bilan teng bor-yo'g'i bir yosh kichik edi. Ammo yosh bo'lsa-da, qizlarga suyagi yo'q edi. "Nima yangiliklar endi", deya u yoq-bu yoqdan gaplasharkanmiz, qizlar mavzusi ochilib ketdi. Internetda yangi tarmoq ochilganini, juda ham ajoyib narsa ekanini, har kuni bit-tasi bilan tanishayotganini aytdi. Bu saytni eshitib o'zim ham hayron qoldim. Chunki o'zgacha bir global maydon ekan u. Ammavachchamning aytishicha, u yerda suratlar almashilar, joylashtirilarmish. Kun sayin saytning foydalanuvchilari ko'payib borayotganmish. "Darhol sen ham undan foydalana boshla", dedi. Qo'limdagi telefon bilan buning iloji yo'q edi. Ammo bir soatdan keyin Furqon aka smartfonini kamina-ga berib ketishi kerak. Ana o'sha bilan internetga bemalol kirish mumkin. Biroq internetga ham pul kerak, shu tarafi sal chatoqroq-da... Xullas, kaminaga hamma narsa dard-u g'amdek tuyuladigan bo'lib qol-gandi.

Uyga kirdim-u, onamga ham salom bermay ham-momga kirdim. Chunki yuvib olgan bo'lsam ham, qo'lim qop-qora edi, ketmagandi. Buni lift bilan tepa-ga ko'tarilayotganda sezib qoldim. Yuvinib, top-toza bo'lib chiqdim. Oldin gaz bo'lmagani sababli uyda ko'pdan beri ovqat qilinmayotgandi. Ammo bugun osh-xonadan yoqimli hidlar taralayotgandi. Onam bilan sham yorug'ida maza qilib ovqatlandik. Mana shunday elektrsiz, uyni zulmat qoplagan kunlardan ham yax-shi xulosalar chiqarishni o'rganib olgandim. Onamga ham har xil hikmatli so'zlar aytib yuzini kuldirayot-gandim. Shu payt telefon jiringladi. Furqon aka kelgandi. Yugurib pastga tushdim, undan telefonni



oldim-u rahmat aytib tezda qaytib chiqdim. Onamga telefonimni sotganimni ham bildirolmagandim. Oldinroq sizga aytdimmi-yo'qmi, buni ham eslolmayman. "Smartfonimni ta'mirlatdim, ona", deya uni ko'rsatdim. Uyga chiqishdan oldin do'konga kirib, do'stinga omonatini topshirgan edim.

Darhol sim kartamni telefonga qo'yib, internet paket sotib oldim-u, ammayvachcham aytgan narsani yukladim. Keyin esa u yerda sayr-u sayohat degandek... boshlandi. Bu tarmoq o'zgacha tuzilma ekan. Nomerangan do'stlaring Facebookka bog'lanadi-yu, seni bemalol topib olib, tarmoqqa a'zo qiladi. Xayolinga tezda turfa fikrlar kela boshladi. Axir bu yerda insonlar butun dunyodan rasmlar almashadi. Shuning uchunmi, u juda ham yoqib qoldi menga. Yorliqlar bo'limida Anqara deb yozilgan edi. U yerga bossangiz, poytaxtdagi kishilarning rasmlari chiqib kelarkan. Do'stlashishni xohlaganlaringni kontaktlaringga qo'shib olarkansan, rasmlarini yoqtirganingni ko'rsatuvchi belgilar (layklar) yuborarkansan, ular ham yuborarkan. Keyin esa o'zaro fikr almashilarkan... Qisqasi, bu tarmoq menga juda ham yoqib qoldi. Sababi, hech yo'q vaqt o'tishini osonlashtirarkan. Odamni g'amlaridan chalg'itarkan. Bundan tashqari, yangi do'stlar orttirish uchun ham juda qulay. Soat kech bo'lganini ko'rsatayotgan paytda ham qo'limda telefon, haligi tarmoqda sayohat qilish bilan mashg'ul edim...

Bu yog'ini muxtasar qiladigan bo'lsam, kunlarim bir xil o'tayotgandi. Ertalab ishga ketaman, ya'ni qozon ta'miri, temir-tersak, chang-to'zon, tirikchilik tashvishlari degandek, kechki payt esa telefonim bilan birga vaqt oqimini tezlatishga urinaman. Bu hol toki ha-

yot menga "Qani bo'l, Arslon", deya pichirlagunga qadar, toki hayot menga kulib boqqunga qadar davom etishi aniq edi...

Aslida, tug'ilish, o'lish, yashash oson. Eng og'iri hayotning aynan o'zi edi. umr davomidagi eng qiyamatli, eng lazzatli, eng betakror narsa vaqt edi. Yoshligim bahorida vaqtdan oqilona foydalanish kerakligini kech bo'lsa-da, sekin-asta bo'lsa tushunib borayotgandim...

Miyamda bir ovoz yana menga murojaat qilib: "Hamma narsasi o'tkinchi va yolg'onchi bo'lgan bu hayotda nima uchun g'am-tashvishlaring atrofida bunchalar o'ralashib qolding, ularga parvona bo'lyapsan, o'zingni qirq bo'lakka bo'lyapsan?" der edi to'xtamay. Bu ovoz menga yordam berish uchunmidi yoki hayot tashvishlariga yanada chuqur sho'ng'ishga boshlash uchunmi, bilmayotgandim. Sen fikr qil, sen o'qi, sen ayt, do'stim, qaysi biri?..

Har bir kishi bor-yo'g'ini nimagadir havola qiladi. Misol uchun, vaqtga havola qiladi, do'stining doimo oldida bo'lishiga havola qiladi, shunchaki tasodifga havola qilgan bo'ladi, hatto qadar izmiga ham tashlab qo'yishi mumkin... Men esa Allohga topshirgandim. Chunki bilar edimki, jamiki qadarlarning ustida bir qadar bor. Shu vajdan qadarga aslo isyon qilib bo'lmasdi. Negaki hech narsa qadarning izmida emasdi. Yana shuni bilardimki, qadarni ham yozuvchi bir Zot bor...

Ha mayli, ko'pam "o'tlab" ketmasdan, mavzuga qaytay... Kunlarim bir xil va zerikarli o'tayotgandi. Toki telefonimdagi haligi ijtimoiy tarmoqning foydali taraflarini ko'rib qolgunga qadar...

Uyda edim. Ertasiga dam olish edi. Yarim kecha

ikkilar edimi, aniq eslolmayman, xullas, har doimgidek internet dengizida suzayotgandim vaqt o'tkazish uchun (Aslida, vaqtim to'liq u yerda isrof bo'layotganini bilmasdim). Menga do'st bo'lish so'rovlarini obdan ko'zdan kechirib nima ko'rdim deng? Kelgan 102 ta so'rovning naq saksontasi savdo sotig'-u reklama maqsadida yuborilgan ekan. "Bu qanaqasi, o'rtoqlar, agar savdo-sotiq qilishni xohlaganimizda sizlardan so'rab o'tirmay do'stlar qatoriga qo'shib qo'yardik-da", deya ming'iray-ming'iray hammasiga rad javobini berdim.

**Hech narsani o'z holiga tashlab qo'ymagan holda hammasini Allohga havola qildim. Qanday muhim narsalar topishirsam-topshiray, ularning ishonchli qo'lda bo'lishini xohladim. Men o'z shaytonimni mana shu usul bilan zabun etdim.**

## TAVAKKUL VAQTI

Yarim kecha, nihoyat, internetdan zerikib, uxlashga yotdim. Ertalab uyg'ongach, oynaga qaragam, ko'zimda bir nur va miyamda sovdo-sotiq g'oyasi bor edi. Ya'ni go'yo ilohiy bir tushuncha shuurimga kirib, haligi fikrni joylashtirib chiqqandek edi. Hali xonamdan ham chiqmay turib: "Boshliqlardan sovg'alarni olaman va ijtimoiy tarmoqda sotaman", dedim o'zimga-o'zim.

O'ylaganim juda ham daromadli ishdek ko'rinyotgandi va eng asosiysi aqlga ham to'g'ri keladigan faoliyat edi. Yagona muammo - qo'limda mablag' yo'q. Ya'ni sarmoyam nol edi. Kimdan ham yordam olishim mumkin edi. Bir tiyinga ham muhtoj bo'lgan kezarimiz topilmagan Hotamitoylar katta miqdorda pul kerak bo'lganda mana men, deb chiqadimi sizningcha? Tabiiyki hech kim bunday saxovat ko'rsatmas edi...

Telefonni olib ijtimoiy tarmoqqa kirdim. Savdo-sotiq haqidagi ma'lumotlarni sinchiklab ko'zdan kechira boshladim. Kuzatdim, o'qidim. Men sotadigan narsalarni reklama qilayotgan bormi deya. Birikki soatcha davom etdi bu ish. Ammo ko'rdimki, sovg'alarni sotaman deb e'lon berganlarning hammasi vositachi edi. Oralarida birorta ham haqiqiy "birinchi qo'l" topilmadi. Bu men uchun juda ham qulay imkoniyat edi. Ammo sarmoya topmasam, fikrlarim

havoga uchardi. Xayolimga faqatgina Furqon va Serjon keldi, xolos. Ulardan sotib beraman deb yigirmatadan mol olsam va biroz kuttirsam, ya'ni "Pulini bir haftadan keyin berarkan", desam, o'rtada katta daromadga ega bo'lib qolardim. Chunki sotayotgan hadyalarimizning bahosi do'konlar narxidan ancha arzon edi. Internetda sotish orqali esa katta foyda qilardim. Sababi, u yerda narxlar ancha baland ekan. Natijada, kamroq bo'lsa-da mablag'ga ega bo'lardim. Ammo Furqon va Serjon kutib turishga rozi bo'larmidi-yo'qmi bilmadim.

Buni qanday qilish mumkin deya internetda qidirmagan joyim qolmadi. Bu g'oyani chuqur o'rganib, nozik-nozik joylarigacha hisoblab chiqishim kerak edi. Vaqt borligida buni amalga oshirishim shart. Balki, eng qulay imkoniyat oyog'im ostidadir. Balki, hayot menga qandaydir umid uchqunlari haqida pichirlayotgandir... Xullas, yo'qotadigan hech narsam yo'q edi. O'qib-o'rganganlarim natijasida shuni ayta olamanki, bu ishga qodir edim va barchasini o'z o'rnida puxta bajaradigan bo'lsam, bu yo'lda bemalol yurib keta olar, hatto yugurish imkoniyatiga ham ega bo'lardim. Rostdan ham kerakli bo'lgan barcha ko'nikmalar bor edi mazkur faoliyat uchun.

Boshqalardan qayerim kam axir. Ustiga-ustak, yo'qotadigan nimam ham bor o'zi? Hech narsam yo'q edi. Shunga urg'u bergan holda o'z-o'zimni ruhlatirayotgandim. O'rnimda mixlangan holda hali u sayt, hali bu sayt qilib rosa izlandim va qaror berdim: bu ishni uddalay olishim muqarrar.

Endigi navbat sarmoyaga keldi. O'sha paytlar o'ziga ancha to'q bo'lgan bir amakim bor edi. Ammo men

so'rasam pul-mul berishiga ko'zim yetmasdi. Shuning uchun onamni u bilan gaplashtirib so'ratmoqchi bo'ldim. Dastlab hadyalarni qabul qiladigan joyni belgiladim va onam bilan gaplashib olish uchun uyga tomon yo'l soldim. Unga qilmoqchi bo'lgan ishimning ipidan-ignasigacha gapirib berdim. U ham: "Bu qo'lingdan keladi, o'g'lim, qo'lingdan keladi, sezib turibman, yagona umidim o'zingsan", dedi va qo'shib qo'ydi:

*"SEN BU OILANING OTASI SANALASAN. SEN YIQILSANG, BUTUN UY BOSHIMIZGA QULAYDI, SEN YIQILSANG, ONANG HAM YIQILADI, SEN YIQILSANG, UKANG-DA YIQILADI..."*

*SHUNING UCHUN ZINHOR TASLIM BO'LMA, O'G'LIM, ZINHOR TASLIM BO'LMA. BILAMAN, BU YUKNI KO'TARISH OSON EMAS, AMMO SHUNI BILKI, ALLOH DOIM SEN BILAN - ESINGDAN CHIQMASIN. SHUNI HAM UNUTMAKI, HAQ TAOLO HECH KIMGA KO'TARA OLMAYDIGAN YUK BERMAYDI".*

Bu gaplarini butun umr yodimda saqlashga ahd qildim va hozir ham kechagidek yodimda. Endi shuni bilamanki, Alloh, rostdan ham hech kimga ko'tarolmaydigan darajada yuk bermas ekan, bu tushuncha mening taskin topish manbayim bo'lib qoldi (Esingizda bo'lsa, bu haqida oldin ham aytib o'tgan edim). Kuchli bo'lsam kerakki, Rabbim menga mana shunday vazifani ato etdi.

Onam amakimga qo'ng'iroq qilib, o'sha paytda uncha ham ko'p bo'lmagan miqdorda qarz berib turishini so'radi. Ammo u rad javobini berdi. Umidlarim egilgan edi, biroq aslo sinish yo'q, aslo. O'sha paytlarda ma'lum to'lov evaziga uyali telefon simlari torti-

lar, haqqi esa qarz hisobida oz-ozdan to'lanar edi. Bu shakl hali ham bor, lekin o'sha davrlarda endi-endi kirib kelayotgandi. Menda hech vaqo yo'q, boshqa yo'l topishim zarur edi. Shuning uchun haligi uyali telefonni avval qarzga sotib olib, keyin esa sotib, vaqti kelganda bo'lib-bo'lib to'lashni niyat qildim. Ammo buni kimning yordami bilan qilish mumkin. Tayinli ishi bo'lmagan, bo'g'zigacha qarzga botgan, ustiga-ustak uyida chiroq ham yonmaydigan Arslonga kim ham ishonardi deysiz? Alloh birortasini yo'llaydi va u ishonadi.

Samimiy va eng yaqin kishilarimdan bo'lgan Yalchin akam esimga tushib ketdi. U juda ham badavlat bo'lmasa-da, odam desa odam degulik inson edi. Doim yonimda turishdan or qilmaydigan-qalb egasi ekanini bilardim. Menga ora-sira sim qoqib hol-ahvol so'rab turardi. Gaplashayotganda ham qandaydir yo'l bilan og'irimni yengil qilish istagini sezib turardim. Ammo qo'li kaltaligi bois bunga ojiz edi. Unga qo'ng'iroq vaziyatni tushuntirdim. "Mening nomimga berishlari mumkin bo'lsa, o'ylanib o'tirmay olib qo'ya qo'laylik", dedi baraka topkur.

Xullas, Alloh kaminaga bir imkoniyat eshigini ochgan edi. Bu ish bitadiganga o'xshaydi. Yalchin aka bilan o'sha kuniyoq telefon sotuvchining oldiga bordik. Faqat masalaning boshqa bir tomoni bor edi: uning nomiga telefon berisharkan, biroq telefonni qarzga olib bo'lib-bo'lib to'laymiz deguncha ancha katta summaga aylanib ketarkan. Natijada, uni sotgan taqdirimizda ham ancha zarar qildik. Buni eshitgan Yalchin aka menga qarab: "Bu qo'lingdan keladi, ukam, to'lolmasang o'zim to'layman, ammo hammasi-

ni muvaffaqiyat bilan bajarishingga aminman. Shuning uchun hecham andishalanma. Shu yergacha kelgan ekanmiz, bu - Allohning xohlayotganidan dalolat", dedi va sotuvchiga so'z qotdi: "Men roziman, kerakli hujjatlarni bersangiz imzo qo'yardim". Telefonni ola solib yugura-yugura uni sotishga ketdik, sotib, pulni ham oldik.

Mablag' o'ylaganimdan kamroq edi, ya'ni olgan narximizga nisbatan. Shunday bo'lsa-da, bu men uchun katta imkoniyat edi. Faqat kamina uchun emas, onam, ukam, oilam uchun bir armug'on, Allohning inoyati edi. O'sha paytda juda ham hayajonda edim. O'zimni xuddi bolalardek quvnoq sezayotgandim. Go'yo oyoqlarim bir-biriga chalishib qolayotgandek edi. Sovg'alar-ni sotadigan kishiga qo'ng'iroq qildim va Yalchin aka bilan yo'lga tushdik. Bordik, oldik. Qo'limda naq o'n yetti dona sovg'a bo'lib, bularning puliga yana o'n yetti dona sotib olishim mumkin edi. Lekin tirikchilik, oziq-ovqat degan masalalar ham borligi sabab, tabiiyki, bunga imkonim bo'lmasligi aniq edi. Sodda qilib aytganda, menga bir baravar foyda qolar edi. Hatto dastlab katta mablag' bilan boshlamagan bo'lsam-da. Aniqroq aytganda, ellik, oltmish, yetmish liradan olib, yuz, bir yuz o'n, bir yuz yigirma liradan sotar edim donasini. To'g'ri, bunday shaklda oldi-berdi qilish birinchi tajribam. Biroq butun xayolim shu ishda edi. ularning ancha xaridorgir bo'lishini kutayotgandim. Chunki bu sovg'alar do'konlarda naq ikki yuz, ikki yuz ellik liradan sotilardi.

Yalchin aka bilan "Bajara olamiz, bajara olmaymiz", "Qani bo'l, Arslon, qani bo'l, shunqorim, sen uddalaysan, men yoningdaman!"ga o'xshash gaplarni so'z-



lay-so'zlay uyga qaytdik. O'sha paytda qo'limda chamadon emas, butun boshli bank kassasini ko'tarib ketayotgandek edim. Buni ko'p ham deb hisoblamang, "Bor-yo'g'i o'n yetti donaginami?" ham demang. Shunchaki o'qishda davom eting, vassalom...

Yalchin akaga chin ko'ngildan rahmat aytib, "Imkon qadar qisqa vaqtda qarzimdan qutulaman, xavotir ol-mang", deya xayrlashib uyga chiqdim. Eshikdan kirar-kirmasim birinchi qilgan ishim ijtimoiy tarmoqda o'z savdo sahifamni ochish bo'ldi. Tarmoqdagi shaxsiy "akkaunt"imni o'chirib tashlab, yangisini ochdim va to'g'ri kelgan hammani unga a'zo qila boshladim. Keyin esa mollarimning suratlarini sahifaga joylashtirib, tagiga "100 foiz original", deb yozib qo'ydim. Bu bilan ham cheklanmay, shunga o'xshash boshqa sahifalarga kirib tajriba o'rganishga intildim. Ko'plab insonlarning ishonchini qozonish va ketma-ket mol sotish ancha vaqt talab etardi. Chunki sahifamning kuzatuvchilari yo'q edi hisob. Ularni ko'paytirish uchun do'stlarim-ga xabar yubordim "Sahifamga odamlarni a'zo qi-linglar", deya. O'zim ham to'xtovsiz ravishda tanigan-tanimagan kishilarni sahifaga qo'shib qo'yayotgan, joylashtirgan rasmlariga etiborni tortish uchun "layk" bosayotgandim. Oldin shaxsiy sahifamga boshqa so-tish tuzilmalari qanday xabar yuborgan bo'lsa, men ham boshqalarga shu tarzda taklif yuborayotgan-dim. Astoydil ishga kirishib ketganimdan, uyqum ham o'chib ketgandi. Xullas, qo'limdan nima kelsa barcha-sini qilayotgandim. Bo'lishi kerak, bo'lmasligi mum-kin emas...

Do'stlarim, tanishlarim, qarindoshlarim birma-bir odam qo'sha boshlagandi. Ayniqsa, bu borada do'st-

larimning malakasi yuqori edi. Ammavachchamning harakatlarini aytmay sizmi. Hatto opam va ukam ham nimalardir qilishga intilayotgandi. Eng mashhur tar- moq Facebook bo'lgani bois o'sha yerdan inson- larga tanitayotgandik o'zimizni. "Siz ham odam qo'- shing", "Boshqalarga ham ulashing", deb yozib qo'ya- yotgandim... Kim menga ozgina tanish bo'lsa, o'shan- dan ham foydalanishga tirishayotgandim... Shu tarzda ertasi kungacha davom etdim. Undan keyingi kun tog'am bilan ishga chiqishim kerakligi tufayli bu ma- sala bilan shug'ullanolmasdim. Shusiz ham qozon ta- mirlayotgan joyimizda internet ishlamasdi.

Kunlar shu tarzda kechaverdi. Oradan naq o'n kun o'tgan bo'lsa-da, bir dona ham mahsulot sotolmadim. Bu yog'iga xayollarim suvga, umidlarim balchiqqa, o'zim esa mozorga tushgandek edim. "Albatta, bo'ladi, bo'lmasligi mumkin emas", deb turganim endi "Bo'l- maydi chog'i", degan so'zlar bilan almashgandi. "Qo'- limdan kelmaydi"ga o'xshagan xayollar miyamdan o'tgani-o'tgan edi. Allohim, kuch ber, sabr ber, endi bu qarzlarni qanday to'layman axir? Ustiga-ustak hali telefonning puli ham bor. Hadyalarni ulgurji do'kon egasiga eltsam, olgam narximda ketar edi. Ammo bu ham yetmasdi-da. Hammasini barbod qildimmi? Nahotki!.. Hatto qozon ta'mirlash ishiga ham qo'lim o'rganib ketolmayotgandi. Mana shunday o'ylar bilan band ekanman, tog'am: "Tornavida, tornavida, Arslon, tornavida!" deya baqirdi. Bu gapni o'n marta takror- laganini aytdi. Xayolim bo'linayin edi. Boshim ichi- dagi mitti miyam ham ishlamay qolgandi shu desan- giz. O'n kun-a, naq o'n kun bo'ldi... A'zo bo'lganlar soni to'rt yuztadan o'tgan bo'lsa-da, hamon biror natija

yo'q. To'rt yuz kishidan ham bitta xaridor chiqmasligi mumkinmi? Katta imkoniyat yuzaga keldi deganim mana shu bo'lib chiqdi: to'rt yuzdan bir ulush qadar ham toleim yo'q ekan. Ammo bunda ham bir hikmat bordir-da, bordir bir xayr...

Furqon va Serjon akalar sim qoqqanda ham javob berolmayotgandim. Chunki, agar olganlarimni sota olsam, ularning mollariga o'zim xaridor bo'lardim. Biroq baxtga qarshi bir dona ham savdo yo'q. Yana noshudlik, yana muvaffaqiyatsizlik...

“Chorasiz qolgan paytlarim biror hay-  
kaltaroshni topib, uning ishini tomosha  
qilaman. U toshni yuz marta urganda ham,  
ba’zida sinish u yoqda tursin, kichkina bo’lsa-  
da yorilmaydi... So’ngra bir yuz birinchi  
urishda kutilmaganda ikkiga bo’linib keta-  
di. O’sha paytda shuni tushunib yetamanki,  
toshni ikkiga bo’lib yuborgan oxirgi zarba  
emas, ungacha bo’lganlaridir”.

Jakob Riis



Yuqoridagi hikmatli so'z yodimga tushib qoldi. Qayerda o'qiganim esimda yo'q. Ammo menga kerak bo'lgani shu edi. Mana shunday dunyoqarash edi. To'xtashga, charchashga umuman haqqim yo'q. Qu-log'im ostida onamning: "O'G'LIM, SEN YIQILSANG OILAMIZ YIQILADI", degan gaplari jaranglab turardi.

Shunday qilib, bilmayman nechanchi marta qay-tadan ichimdagi umid uchqunini alanga oldira bilgan edim...

Kechki payt uyga horib-charchab ketardim, ammo internet sahifamga odam qo'shishni, mahsulotlarimni reklama qilishni davom ettirayotgandim. To'rt yuzdan bitta chiqmagan yetti yuzdan ham bitta chiqmadi. Kunlar ketidan kunlar o'tib borayotgan, elektr va gaz to'lovlari vaqti yetgan, ijara ham yaqinlashib qolgan, suvning puli tugay-tugay deytogandi. To'xtamayotgandim, hech qachon taslim bo'lmaslikka qaror bergandim. Bu ish meni qarz botqog'iga yetaklasa ham voz kechmasdim. Oldin ham aytganimdek, bu yog'iga kunlar bir xil o'tayotgandi. Yordami tegib qolar deya qilmaganim hech bir ish qolmagandi. Lekin qalbimda tavakkulim mukammal, ishonchim tom edi. Allohga umid bog'lagandim. Ishim doimgidek Rabbimga havola edi. Bu fikr menga quyidagi satrlarni eslatib yubordi. Ishlarim yurishmay turgan bir paytda ushbu so'zlar men uchun ayni muddao edi: "Nimalarni o'ylayapsan, Arslon? Axir o'zing aytmas-miding doim, ishing Allohga qolgan bo'lsa, demak, u amalga oshibdi, deya". "Ha, xuddi shunday deganman", dedim. O'zi rostdan ham qo'limdan kelgan hamma chorani ko'rgandim. Ham moddiy, ham ma'naviy tomondan. Duomni-da to'xtamasdan qilayotgandim.

Endi bu qo'llardan faqat duo kelardi, xolos. Chunki nima qilsam-da foyda bermayotgan edi.

Oradan yana bir hafta o'tdi. Sahifamni kuzatib bo-rayotganlar soni bir ming besh yuzdan oshdi. Bu vaqt ichida bekor o'tirmay, qo'limga hadyalarni olib do'stlarimga, davlat idoralariga ko'rsatib chiqqan edim. Biroq shunda ham bir dona bo'lsin sotolmagandim. Tog'am bilan ishlashda davom etayotgandim. Telefon uchun to'lovning ham ilk qismi yetay deb qolgandi. Maoshdan beray desam, tog'am berayotgan pul unchalik ko'p emasdi. U bor-yo'g'i ijara va elektr toki to'lovlariga yetardi, xolos. O'zim uchun cho'ntak puli bo'ladigan mablag'ni ham topolmay yurgandim, aslida.

Ora-sirada sigaret xumor qilib, ilojsizlikdan yerdan sigaret qoldiqlarini olib chekkan paytlarim ham bo'ldi. Ammo hammasiga behisob shukr deyman. To'rt muchamiz sog' edi. Shunday bo'lsa-da, qiyin paytlarni boshimdan kechirayotgandim. Tabiiyki, oilam ham mana shunday og'ir kunlarni men bilan birga o'tkazayotgandi. Bunga eng asosiy guvoh esa onam: ham eri tashlab ketgan, ham bir o'g'li harbiy xizmatda, xullas, judolik hasrati ustiga yo'qsillik qiyinchiliklariga ham sabr qilayotgandi g'amguzor onaginam. Shunday bo'lsa-da, hayot taqozosi deymanmi, imonning kuchi deymanmi, onam mendan ko'ra kuchli, irodali edi. Bir narsa bo'lishi kerak edi, bilib turibman, bir narsa bo'lishi kerak: meni oyoqqa turg'izadigan bir mo'jiza, tushunyapsizmi, mo'jiza...

Agar o'rnimdan tursam, yugurib ketishim aniq edi. Ya'ni shunday bir holda edimki, oldimda oshib o'tishim kerak bo'lgan kichkina bir to'siq turardi. Shundoqqina uning oldida shay turardim-u, biroq bir odim

ham o'tolmayotgandim. Orqamga qarab, deymanki: "Kimdir meni yaxshilab tepsa-yu, to'siq ustidan oshib narigi tarafga tushsam. Ana keyin ko'rasiz - o'rnimdan irg'ib turib ketaman. Yurmayman, balki yuguraman. O'sha to'siqni oshishga kifoya qiladigan kuch topa olganimda edi o'zimda: biror yordam, biror tayanch topa bilsam, ya'ni tepki bo'lsada, hatto bir musht, shapaloq bo'lsa-da, boringki qo'limdan tutib yetkalash bo'lsa-da farqi yo'q edi..."

Qolganini o'zim hal qila olishimga ishonchim komil. Vaqt mana shunday bema'no o'tayotganini o'ylab har kun mahzun edim. Oqibati nima bo'lishini tasavvur ham qila olmagan holda oldinga qadam tashlayotgandim. Qanday qilib bo'lsa ham qiyinchiliklarni yengib o'tishim shart edi. "Qadarim singan nuqta", desam ham bo'ladi-yu, ammo bu sho'rlik qadar juda ko'p sindi, sog' joyi qoldimikan o'zi? Menimcha qolmadi, do'stim, qolmadi. Insonning yashab turgan holda ruhiyatini tamom bo'lgandek, tanasini o'lgandek his etishi juda ham achinarli hol. Kunduz kechalardan ham tez o'tib ketadigan, kechalar esa imillab to'xtab turadigan paytda edim.

"Inson kechalari ko'p g'am chekadi", deydilar. To'ppa-to'g'ri gap. Chunki kunduzi hayot tashvishlari bilan bo'lib, o'ylashga ham vaqt topolmaydi inson. Ammo kechalar unday emas. Kechalar, xayollar oqimi insonni g'arq qilishi uchun eng qulay payt. Kecha - dardlaring bilan yolg'iz qolgan vaqtdir. Vaqt o'tgan sari dard chekadigan, g'am o'tiga qovuriladigan chog'dir u. Shuning uchun kechalar yanada og'ir o'tadi inson uchun...

Endi esa mavzuga qaytaylik... Yana ishdaman, ya'ni tog'am bilan qozon ta'mirlayapmiz. Shu payt te-

lefon jiringladi. Ko'tardim. Nihoyat, mijoz menga sira qoqqandi, shu desangiz. Ha-ha, to'g'ri topdingiz, bu birinchi mijozim, birinchisi! O'sha kuni qanday xur-sand bo'lganimni ta'riflab berolmayman. O'chay-o'chay deb turgan umid uchqunim bir onda alanga oldi. Ilk savdomda bir emas, naq yettita sovg'a sotdim. Bu tushim emas, o'ngimda bo'layotganiga ishonolmadim o'sha chog'da. Tog'amni tashlab tashqariga chiqdim. Gavjum ko'chada ust-boshi qop-qora, chang-to'zon bo'lib ketgan bir yigit u yon borib, bu yon kelib, birinchi mijoz bilan telefonda gaplashayotgandi, odamlar orasida o'ng-u so'lga qatnab turgandi. O'sha paytda hammaning menga hayron-hayron qarab turganini ham sezmayotgandim. Buning sababi, kiyimlarim juda ham iflos edi. Ammo bunga kamina qanday ham e'tibor bersin. Ilk mijoz axir... U sevinchni hozir ta'riflab berolmayman. Hayotim osmonida qaytadan quyosh porlagandi. Keling, bu alangalanish qanday kamol topib borishini birgalikda ko'raylik...


Kunlar o'tgan sari sahifamga kelayotgan murojaatlar, qilinayotgan qo'ng'iroqlar soni ortib ketdi. Sababi tarmoqda oldin e'tibor bermagan narsamni ko'rib qoldim. Gap shundaki, o'zimnikiga o'xshagan bir savdo sahifasi "Bir-birimizni reklama qilgan holda mijozlarimizni ko'paytiraylik", degan taklif bilan chiqqan edi. Shunday qilgan edik, unga yigirma kishi, menga bir yuz ellik kishi a'zo bo'ldi. Natijani ko'rib darhol barcha savdo sahifalari bilan hamkorlikni boshlab yubordim. "Bir-birimizni reklama qilaylik, mijozlarimizni ko'paytiraylik va ikkalamiz ham foyda ko'raylik", deb yozilgan, tabussumli stikerlar bilan bezatilgan takliflar yubordim. Buni o'qigan har to'rt ki-




shidan bittasi taklifimga rozi bo'ldi va bir-birimizni reklama qilib, kuzatib boruvchi mijozlarni o'zaro almasha boshladik.

Oradan bir hafta o'tgach, kuzatuvchilarim soni naq besh mingga yetdi. Holbuki, oldingi uch haftada zo'rg'a sakkiz yuz kishini a'zo qilgandim. O'sha orada tanishib qolgan do'stlardan biri – Husayn menga bu borada ancha yordam berdi. Chunki uning ham kattagina internet savdo platformasi bor edi. Nima uchundir meni yoqtirib qolib qo'lidan kelgan yordamni ayamadi. Mana shunday yordamlar, mijozlar ortishi sharofati bilan ishlarim sekin-asta yurishib keta boshladi. Oldingi uch haftada birgina mijozga mol sotgan bo'lsam, oxirgi haftada ularning safiga yana to'rtta mijoz qo'shildi.

Nihoyat, ko'kragimga shamol tega boshlagandi, do'stlarim. Buning asosiy sababi esa, avvalo, Allohning inoyati, menga insonlar qo'li bilan ko'mak bergani bo'lsa, keyin o'zimning ishonchim, matonatim, nima bo'lganda ham voz kechmaganim edi.



Hayotning eng shafqatsiz  
yuzini ko'rgan paytlaringda  
tasalli berguvchi bir ovoz  
kutasan, birortasi yordam  
qo'lini uzatishiga umid qilasan.  
Kutasan-kutasan, ammo  
hech qachon kelmaydi.  
Buni bila-bila kutishda davom etasan.



*Bu yog'iga yaxshi narsalarga  
shunchalar ehtiyojim borki,  
shunchalar qattiq istayapmanki...  
O'sha paytda ichimdagi ovoz  
oyoqqa turdi va: "Qani bo'l", dedi,  
"Qani bo'l, dorulamon kunlar sari olg'a..."*